


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI**

**Yakubova Nodira Baxodirovnaning**

**5230100-“Iqtisodiyot (makroiqtisodiyot)” ta’lim yo`nalishi bo`yicha  
bakalavr darajasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mamlakatda bank-moliya tizimi barqarorligi omillari**

**Ilmiy rahbar:**

A handwritten signature in black ink, appearing to be 'k.o`q.M.Aminova'.

**k.o`q.M.Aminova**

**Urganch 2016 yil**

## **MUNDARIJA**

### **KIRISH**

#### **I-BOB. O'ZBEKISTONDA BANK-MOLIYA TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USLUBIY ASOSLARI**

1.1. Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi va ularning funksiyalari

1.2. O'zbekiston tijorat banklarida zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari

1.3. 2011-2015-yillarda respublika bank-moliya tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish

#### **II-BOB. DAT "ASAKA BANK" XIZMATLARINING KO'RSATILISHI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI**

2.1. DAT "Asaka bank" faoliyati va strukturasi

2.2. Bankning kredit siyosati, turlari va qulayliklari

2.3. DAT "Asaka bank" OAJ Xorazm viloyat filialining hozirgi moliyaviy faoliyati tahlili

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## KIRISH

**Mavzuning dolbzarligi.** Zamonaviy bank-moliya sohasi – dinamik rivojlanib borayotgan sohadir. Tarixan, iqtisodiy faoliyatning eng qattiq nazorat qilinib va tartibga solinib kelayotgan sohasi bo‘lgan bank faoliyati asta – sekinlik bilan butun jahonda erkinlashtirilib borilayotgan biznesga aylanib bormoqda. Bank sohasini tashkil qilishda eski uslublardan yangilariga o‘tish turli mamlakatlarda turlicha olib borilishi, bu mamlakatlar bank tizimining turlicha holatda bo‘lishiga olib kelmoqda. Prezidentimiz I.Karimov iqtisodiyotning qon tomiri bo‘lgan bank, moliya, kredit sohasidagi o‘ziga xoslikni, shu jarayonni bozor iqtisodiyoti talabidan kelib chiqib istiqloq manfaatlari uchun yo‘naltirish nafaqat muhim, ayni paytda o‘ta murakkab, jiddiy masala ekanligini ta’kidlab shunday degan edi: «Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o‘shish sur‘atlarini ta’minlashda eng muhim omil bo‘ladi<sup>1</sup>».

Mamlakatimizda bank tizimini isloh qilish iqtisodiy islohotlarning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu borada Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon va qarorlar asosida ushbu sohaning har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi tufayli yurtimizda xalqaro andozalarga mos keladigan zamonaviy bank tizimi shakllandi. Shu bilan birga, bank-moliya tizimida raqobat muhitining kuchayishi, o‘z navbatida, bu sohada olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish, shuningdek, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish hamda investitsion jarayonlardagi ishtirokini yanada faollashtirishni taqozo etmoqda.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Banklarning faoliyatini o‘rganish asoslari, amal qilish qonuniyatlari va xususiyatlari ko‘pgina xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan o‘rganilgan. Xorijiy iqtisodchilarning ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlari jumlasiga E.Naumen, P.Rouz, G.Minsbergi, M.Porter, F.Fordlarning ilmiy ishlarini kiritishimiz mumkin va rus iqtisodchilari L.Krasavina, O.Lavrushin, Ya. Mirkin va boshqalar tomonidan bank sohasidagi

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi, Xalq so‘zi, 2015 yil, 17 yanvar

muammolar va ularni bartaraf qilish masalalari ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonlik iqtisodchi – olimlar va mutaxassislar F.Mullajonov, Sh.Abdullayeva, Y.Abdullayev, T.Malikov, T.Qoraliyev, A.Qodirov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida bank faoliyati asoslari hamda amaliyoti keng yoritilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi.** Mamlakatda bank-moliya tizimi barqarorligi omillari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari.** Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish ko‘zda tutilgan:

-2011-2015-yillarda respublika bank-moliya tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirishga erishishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘rganish;

-O‘zbekiston tijorat banklarida zamonaviy bank xizmatlari ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

- O‘zbekiston bank-moliya tizimining rivojlantirish asoslarini aniqlash;

-Bank-moliya tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob‘ekti.** O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan samaradorlik darajasini olib borilishi amaliyoti hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** bo‘lib, tijorat banklarining samaradorligini oshirishga oid bo‘lgan ilmiy masalalar hisoblanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va nazariy asosi bo‘lib,** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning asarlarida, bank sohasini rivojlantirish va mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish yuzasidan, ilgari surilgan nazariy qarashlar, bank faoliyatiga oid Prezident farmonlari va qarorlari, qonun hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda respublika Markaziy bankining me‘yoriy – huquqiy hujjatlari, xorijiy va o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarning bank ishiga oid ilmiy – uslubiy yondashuvlari, amaliy tajriba va xulosalari hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati** shundaki, undagi taklif va tavsiyalardan banklar va ularning filiallarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari olib borishda foydalanish mumkin.

**Ishning tarkibi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ish kirish, ikkita bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

# **I-BOB. O'ZBEKISTONDA BANK-MOLIYA TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USLUBIY ASOSLARI**

## **1.1. Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi va ularning funksiyalari**

Mustaqil taraqqiyotimiz yillarida mamlakatimizda Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida, xususan, xalqimiz farovonligini ta'minlash borasida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda oilaviy biznes, yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda bank-moliya muassasalarining alohida o'rnini bor. Zero, ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimizda bank faoliyati sifat va salmoq jihatidan tobora yaxshilanib bormoqda.

Alohida e'tirof etish joizki, Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konstepstiyasi O'zbekiston bank-moliya tizimini yanada mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Unda mazkur tizimni yanada mustahkamlash, xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan lizing, sug'urta kompaniyalari, kredit uyushmalari, mikromoliyaviy tashkilotlar kabi moliya institutlari faoliyatini tashkil etishning qonunchilik asoslarini shakllantirish hisobidan bank-moliya sohasiga xususiy kapitalni jalb qilishga doir choralar ko'rish zarurligi belgilangan.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Bundan tashqari, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «Iste'mol krediti to'g'risida»gi va «Ipoteka to'g'risida»gi Qonunlar, Prezidentimizning «Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni tizim rivojida mustahkam asos bo'ldi.

Bank - bu tijorat muassasi bo'lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo'sh turgan pul-mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan, to'lovlilik, muddatlilik, qaytib berish sharti bilan joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi. Tijorat banklari bank tizimining bo'g'ini bo'lib, kredit

resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi va bu banklar mijozlarga xizmat ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi ikkinchi pog'onasi hisoblanadi. Tijorat banklarini ochishga litsenziyani faqat Markaziy bank beradi. Markaziy bank tijorat banklarining faoliyatini olib borish bo'yicha iqtisodiy me'yorlar belgilab berib, ularning bajarilishini nazorat qiladi<sup>2</sup>.

Tijorat banklari o'z kapitali (regulyativ kapitali) ning bank aktivlarining umumiy miqdoriga nisbatan 10 foizdan kam bo'lishi mumkin emas<sup>3</sup>. Hozirgi paytda bank ustav kapitalining miqdori tijorat banklari uchun 10 mln. yevro ekvivalentidan, xususiy banklar uchun esa 5 mln. yevro ekvivalentidan kam bo'lmasligi kerak. Banklar o'z ustavi asosida faoliyat ko'rsatadilar. Bank ustavida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi lozim<sup>4</sup>:

- Bankning (to'la va qisqartirilgan) nomi va qayerda joylashganligi (pochta manzili);
- Bank operatsiyalarining ro'yxati;
- Ustav kapitalining miqdori, muassislar ro'yxati va ustav kapitalidagi ulushlarning taqsimoti;
- Bankning boshqaruv organlari, ularni tashkil etish tartibi, ularning vakolatlari hamda vazifalari haqidagi ma'lumotlar;
- Bank auditi tartibi, shu jumladan, buxalteriya hisobi xalqaro standartlarga muvofiq belgilangan hisobotlar va auditorlik dasturlarining maqsadlari.

Tijorat banklari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish.
2. Korxonalar, tashkilotlar, davlat va aholini kreditlash.
3. Muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari) ni chiqarish.
4. Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni 1995 yil 21 dekabr

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va chora tadbirlari to'g'risida»gi prezident Qarori №56 2005 yil 15 aprel

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni 1996 yil 25 aprel

5. Moliya-valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish.
6. Iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va konsultatsiya xizmatlarini ko'rsatish.

Tijorat banklari quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

1. Passiv operatsiyalar;
2. Aktiv ssuda operatsiyalar;
3. Bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;
4. Bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalar va boshqalar.

Xalqaro ekspertlar respublikamiz banklari daromadlilikining ijobiy ko'rsatkichlari va aktivlari sifatining yuqoriligi, likvidligi, mijozlar depozitlari va kapitalning o'sib borayotganligi tizim barqarorligining asosiy omili bo'lganini alohida qayd etdilar. So'nggi yillar davomida «Mudis», «Standart end Purs» va «Fitch reytings» kabi yetakchi reyting agentliklari O'zbekiston bank tizimi faoliyatini «barqaror» deb baholamoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar 2011-yilda mamlakatimizning 13 ta tijorat banki yuqori reyting baholariga sazovor bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda respublikamizning barcha 26 ta banki ana shunday bahoga loyiq ko'rildi. 2015 yilning 1 yanvar holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari soni 26 tani tashkil etib, ularning 3 tasi davlat tijorat banki, 10 tasi aksiyadorlik tijorat banki, 8 tasi xususiy bank va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatimizda xorijiy banklarning 6 ta vakolatxonasi o'z faoliyatini yuritmoqda, ular bilan respublikamiz tijorat banklari tomonidan keng qamrovli va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari o'rnatilgan.

Respublikamizning barcha hududlarida tijorat banklarining tarmoqlari yanada kengayib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga banklarning filiallari soni 846 taga etdi. Bank muassasalarini aholi va ishlab chiqarish korxonalariga hududlariga yanada yaqinlashtirish, bank xizmatlaridan foydalanish sharoitlarini yanada qulaylashtirish, shu jumladan, mijozlarga kommunal va boshqa to'lovlarni to'lashlari uchun yanada qulayliklar yaratish maqsadida tashkil etilgan mini-bank

va maxsus kassalar soni 2014 yil yakuni bo'yicha 4 244 taga etdi, shundan 2 198 tasi qishloq joylarda joylashgan. Bank infratuzilmasining tobora kengayib va takomillashib borayotgani bank xizmatlari bozorida raqobat muhitining va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining yanada yaxshilanishiga hamda aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi oshishiga xizmat qilmoqda.


Tabiiyki, muvaffaqiyatlar xalqaro miqyosda ham alohida e'tirof etilmoqda. Jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasi tadqiqotlari yakunlariga ko'ra, aholiga to'g'ri keladigan bank infratuzilmalar soni bo'yicha O'zbekiston MDH davlatlari orasida peshqadam bo'lib turmoqda. Oxirgi yillarda respublikamizda aholiga va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi o'sishida moliyaviy institutlar (banklar sug'urta va lizing kompaniyalari) muhim hissa qo'shayapdilar. 2014 yilda bank xizmatlari hajmi 1,3 barobardan ko'proq oshib, ularning jami moliyaviy xizmatlar tarkibidagi ulushi 89 foizga yetdi.

2014 yilda respublika bank tizimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan belgilangan 2011-2015 yillarda tijorat banklarining umumiy kapital hajmini qo'shimcha aksiyalarini chiqarish va joylashtirish orqali kamida 2,1 barobarga oshirish vazifasini bajarish yuzasidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish davom ettirildi.

Xususan, 2014 yilda qo'shimcha aksiyalar va qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarish va joylashtirish, aholi va xo'jalik sub'ektlarining bo'sh pul mablag'larini jalb qilish ko'lamlarini kengaytirish hamda boshqa vositalardan samarali foydalanish orqali tijorat banklarining umumiy kapitali yetarlilik darajasi 23,7 foizni tashkil etib, u xalqaro bank nazorati bo'yicha Bazil qo'mitasi tomonidan 8 foiz qilib belgilangan talabga nisbatan qariyb 3 barobar ziyoddir. Tijorat banklarning umumiy kapitali 2015 yilning 1yanvar holatiga ko'ra 6,9 trln. so'mni tashkil etdi. (1.1.1-diagramma)

## 1.1.1-diagramma

### Tijorat banklarning jami kapitali (trln. so'm)<sup>5</sup>



2014 yil davomida tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalini oshirish maqsadida 525,2 mlrd. soʻmlik, shu jumladan, «Oʻzsanoatqurilishbank»ning 222,6 mlrd. soʻmlik, «Agrobank»ning 30,0 mlrd. soʻmlik, «Asaka» bankning 68,8 mlrd. soʻmlik, «Ipoteka-bank»ning 43,2 mlrd. soʻmlik «Orient Finans» bankning 19,5 mlrd. soʻmlik, «Asia Alliance Bank»ning 23,7 mlrd. soʻmlik va «Qishloq qurilish bank»ning 33,3 mlrd. soʻmlik aksiyalari investorlar orasida joylashtirilib, shundan 209,2 mlrd. soʻmlik aksiyalar nodavlat sektor subʼektlariga sotildi.

Qayd etish lozimki, tijorat banklari tomonidan aholining talabi va ehtiyojidan kelib chiqqan holda yangi omonat turlarini joriy etish hamda ushbu yoʻnalishda koʻrsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Oʻz navbatida, aholi real daromadlarining oʻsib borayotganligi, banklardagi omonatlarning davlat tomonidan toʻliq kafolatlanganligi, mijozlarning birinchi talabiga koʻra omonatlar qaytarilishining taʼminlanganligi va bank omonatlaridan olingan foizli daromadlarning soliqdan ozod qilinganligi aholining tijorat banklaridagi omonatlari hajmining barqaror

<sup>5</sup> Manba: [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)


oshib borishini ta'minlamoqda. Banklarda omonatlarning oshib borayotganligi bu aholining banklarga bo'lgan ishonchi oshib borayotganligidan dalolatdir.

O'z navbatida hozirgi paytda texnika - texnologiya soat sayin yangilanib turibdi. Zamonaviy texnika – texnologiyalarsiz ishlab chiqarish faoliyatini tasavvur etib bo'lmaydi. Mamlakatimizda korxonalarni yuksak texnika-texnologiya bilan ta'minlash borasida ham turli chora – tadbirlar olib borilmoqda. Ayniqsa rivojlangan mamlakatlar texnika-texnologiyalar bilan ta'minlanish darajasiga ko'ra yuqori o'rinlarda turadi. Yuqori texnika sifatli va tezkor ish garovidir. 2014-yilda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan 154 ta yirik ob'ekt foydalanishga topshirildi. Ushbu yirik ob'ektlarning ishga tushushida tijorat banklarining kreditlari ham asosiy rolni o'ynadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bank tizimining joriy likvidlik darajasi bir necha yildan buyon 64 foizdan yuqori bo'lib, bu ko'rsatkich ham jahon amaliyotida umumqabul qilingan minimal ko'rsatkichdan 2 barobar ortiqdir. Tijorat banklarining jami aktivlari hajmi 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 28,2 foizga oshib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 56,2 trln. so'mga yetdi(1.1.2- diagramma).

### 1.1.2-diagramma

#### Tijorat banklarining jami aktivlari o'zgarish dinamikasi(mlrd. so'm)<sup>6</sup>




<sup>6</sup>Manba:www.cbu.uz

Bundan tashqari, banklarning resurs bazasini mustahkamlash, aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish maqsadida tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarining chiqarilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Tijorat banklarining muomalaga chiqarilgan qarz qimmatli qog‘ozlari hajmi 2015 yilning 1 yanvar holatiga 1,0 trln. so‘mni, jumladan, muomaladagi uzoq muddatli obligatsiyalar 310,2 mlrd. so‘mni va depozit sertifikatlari miqdori 689,7 mlrd. so‘mni tashkil etmoqda.

O‘z navbatida aholining banklarga ishonchi ortib borishi natijasida depozitlar hajmi ham ortib bormoqda. Masalan, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, tijorat banklaridagi aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari depozitlarining umumiy hajmi 2014 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 30,5 foizga oshib, 28,6 trln. so‘mga etdi (1.1.3-diagramma). Tijorat banklarida depozitlar miqdori oshib borishi kelgusida muhim rol o‘ynaydi. Tijorat banklarida depozitlar miqdori kreditlar miqдорidan kam bo‘lishi kerak, chunki bank foydasi shunga bog‘liqdir.

### 1.1.3-diagramma

#### Tijorat banklarining jami depozitlar qoldig‘i (trln. so‘m)<sup>7</sup>



Tijorat banklarning umumiy kapitali va depozitlar bazasining yanada mustahkamlanishi banklarning ichki manbalar hisobiga kreditlash va investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytirish orqali mamlakat iqtisodiyotining

<sup>7</sup>Manba:www.cbu.uz

yuqori sur'atlarda o'sishini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari hajmi ham oshib bormoqda.

Tijorat banklari bugungi kunda fond birjasining eng faol va eng asosiy ishtirokchisi bo'lib qolmoqda. Fond birjasi umumiy savdo aylanmasida tijorat banklari ulushining yuqoriligi bank qimmatli qog'ozlarining ishonchliligi, ular to'g'risidagi axborotlarning ochiqligi va investitsion jozibadorligidan dalolat beradi. Shuningdek, respublika fond birjasi tijorat banklarining birja savdolarida faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib kelmoqda. Birgina 2014 yilda fond birjasida savdo hajmi yuqori bo'lgan yirik 10 ta emitentning 9 tasini tijorat banklari tashkil etgani bunga misol bo'la oladi. Bundan tashqari, tijorat banklari repo bitimlarini amalga oshirishda investor sifatida ishtirok etishlari mumkin. Ma'lumki, repo bitimlari qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish yo'li bilan pul mablag'larini qarzga olishning ommabop usuli bo'lib, investitsiya kiritishning boshqa usullariga qaraganda xavfsiz hisoblanadi va investorlarning zarar ko'rish darajasini pasaytiradi.

## **1.2.O`zbekiston tijorat banklarida zamonaviy bank xizmatlari ko`rsatishning o`ziga xos xususiyatlari**

Har qanday davlatning iqtisodiy qudratini yuqori samaraga ega bo`lgan zamonaviy to`lov mexanizmlarisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Mamlakatda hisob-kitoblar mexanizmi va to`lov intizomining yaxshi yo`lga qo`yilishi hamda uning aniq faoliyat yuritishi rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining eng muhim ko`rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bank tizimida innovatsion axborot texnologiyalarining keng ko`lamda tatbiq etilishi natijasida mamlakatimizda milliy to`lov tizimini shakllantirish uchun imkoniyat yaratildi.

Bank xizmatlarining sifat ko`rsatkichlari aholiga xizmat ko`rsatish darajasi, zamonaviy bank xizmatlarining joriy etilganligi, banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidlilik darajasi bilan baholanadi. Bank xizmatlari bozorida joriy etilgan zamonaviy innovatsion texnologiyalarning samarasi banklarning raqobatbardoshligi va ko`rsatiladigan xizmatlar sifati darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mijozlar ehtiyojini qisqa vaqt mobaynida qondirish va majburiyatlarni o`z vaqtida ijro etish qobiliyati banklar tomonidan ko`rsatiladigan xizmatlarning sifatiga ta`sir etuvchi omillardan biridir.

Ushbu tizim mamlakatimiz moliya bozori barqarorligini ta`minlash, pul-kredit siyosatini samarali yuritish, milliy xalqaro to`lovlarni o`z vaqtida amalga oshirish va pul oqimlarini boshqarish uchun xizmat qilmoqda. Bugungi kunda O`zbekiston Respublikasida bank tizimida masofadan xizmat ko`rsatish xizmatlari rivojlanib bormoqda. Masofadan xizmat ko`rsatish tizimida bankning yuridik va jismoniy mijozlari bank hisobvaraqlaridan biror joyga pul o`tkazish va shunga o`xshash boshqa operatsiyalarni bankga kelmasdan amalga oshirib biladilar.

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko`rsatish tizimlari – bu mijozning masofadan bergan topshiriqlariga asosan (bankka kelmasdan) bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalaridir. Shu jumladan, O`zbekiston Respublikasi prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438 «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori

xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi» qarori bo'yicha barcha tijorat banklarida bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari joriy etilgan. Bu xizmatlarning barchasi bank mijozlari uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, 2014-yilda bank tizimida moliya-bank xizmatlari ko'lamini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qulay va sifatli zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari («Bank-mijoz», «Internet-banking», «Mobil-banking», «SMS-banking» va boshqalar) ning respublika miqyosida joriy etilishini jadallashtirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilanib, ularning to'liq bajarilishiga erishish borasida tegishli tadbirlar ko'rib borildi. Ushbu xizmatlar asosan kompyuter va telefon tarmoqlari orqali amalga oshiriladi. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarining bir qancha turlari bor. Bular quyidagilar:

Bank - Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlar va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet - banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan plastik kartalarga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali kiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlar va hisobvaraqlardan ko'chirmalar) ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet - banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda:

- to'lovlarni o'tkazish;
- to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;
- barcha hisobotlarni olish.

kabi barcha amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Internet - banking orqali mijoz o'z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib o'z hisob raqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi, pul o'tkazmalarini tayyorlab bankga uzatishi mumkin bo'ladi. Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi va mobil banking tizimi ham internet-banking bajaragan vazifalarni bajaradi.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda plastik kartalarga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak bo'ladi. Keyin mijoz bankdagi hisobvarag'i haqida ma'lumot oladi.

Mijoz uchun SMS-banking xizmatida quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlari beriladi:


- hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar;
- hisobvarag'idan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraq balansi;
- kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma'lumot olish.

Xususan, masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchi mijozlar soni tobora oshib bormoqda. Chunki masofaviy bank xizmatlari mijozlar vaqtini ancha tejaydi va mijozlar uchun qulay xizmatlar hisoblanadi. Mamlakatimizdagi hamma tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlari keng yo'lga qo'yilgan. Buni natijasida tijorat banklarida samaradorlik keskin su'ratlar bilan oshib bormoqda. Misol uchun 2011 yil boshida masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchi mijozlar soni 24,5 mingni tashkil qilgan bo'lsa, 2015 yilning 1 yanvar holatiga kelib masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish

tizimlaridan foydalanuvchi mijozlar soni 534,8 mingtadan ortdi (1.2.1-diagramma) va bu ko'rsatkich 2014 yil boshiga nisbatan 2 barobarga ko'paydi.

### 1.2.1-diagramma

#### Tijorat banklarida masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni (1 yanvar holatiga)<sup>8</sup>



Xorij banklarida masofiy bank xizmatlari ancha rivojlangan bo'lib, bankning deyarli 90-95 foiz mijozlari ushbu xizmatlardan foydalanadilar. Xorij banklari online bank ham mavjud. Xususan online banklardan ko'pincha mamlakatda ishlab chiqarish kamaygan paytda foydalaniladi. Ushbu banklar xo'jalik sub'ektlari ko'p miqdorda kredit ajratib beradilar. Bu o'z navbatida ishlab chiqarishning keskin sur'atlar bilan oshishiga olib keladi.


2015 yilning 1 yanvar holatiga kelib masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchi mijozlar soni 534,8 mingtadan ortgan bo'lib, shundan, «Internet-banking» va «Bank-mijoz» dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2015 yil 1 yanvar holatiga 62,2 mingtani tashkil etgan bo'lsa, «Mobil-banking» va «SMS-banking» xizmatlaridan foydalanuvchilar soni jadal sur'atlar bilan o'sib oxirgi 5 yil davomida 45 barobardan yuqori, ya'ni 10,3 mingdan 472,6 minggacha ko'paydi(1.2.2-diagramma<sup>9</sup>). Kelgusida bundan yaxshi natijalarga erishmiz degan umiddamiz.

<sup>8</sup>Manba:www.cbu.uz

<sup>9</sup>Manba:www.cbu.uz

## 1.2.2-diagramma

### «Mobil-banking» va «SMS-banking» xizmatlaridan foydalanuvchilar



Ushbu 1.2.1-jadvalda O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan 26 ta bank ro'yhati keltirilgan. Shuningdek ushbu banklarning 2015 yil 1 mart holatiga ko'ra masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni 565,2 mingtadan ortib, shundan «Internet-banking» va «Bank-mijoz» dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 64,02 mingtani tashkil etgan bo'lsa, «Mobil-banking» va «SMS-banking» xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 501,2 mingtadan ortiqni tashkil etdi. 1.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki «Agrobank» ATB masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni ko'pligi bo'yicha peshqadamlik qilmoqda.

Undan keying o'rinni esa «Asaka» ATB egallab turibdi. Tez orada boshqa banklarning ham masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni darajasi ortadi degan umiddamiz. Zero masofadan ko'rsatiladigan bank xizmatlari ortiqcha xarajatlarni tejaydi va bank uchun daromad olib keladi. Shuningdek bank samaradorligini ham oshiradi. Bugungi kunda Respublikamizda Masofadan ko'rsatiladigan bank xizmatlari bilan birgalikda elektron to'lov tizimi ham keng qo'llanilib, yangilanib eng muhimi zamonaviylashib rivojlanib bormoqda. Biz elektron to'lov tizimi haqida quyida so'z yuritamiz.

## 1.2.1-jadval

### Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni 2015 yil 1 mart holatiga<sup>10</sup>

№	Bank	Internet-banking va "Bank-Mijoz"	SMS-banking va mobil banking	Jami
1	«Agrobank» ATB	4414	204116	208530
2	«Asaka» ATB	2481	60488	62969
3	TIF Milliy banki	7806	46925	54731
4	«Ipoteka bank» ATIB	5291	45222	50513
5	«Aloqabank» ATB	2837	30076	32913
6	«Kapitalbank» ATB	4617	23767	28384
7	DT Xalq banki	3738	17236	20974
8	TIF Milliy bank	7806	46925	54731
9	«Hamkorbank» ATB	9135	9625	18760
10	«Mikrokreditbank» ATB	2375	15517	17892
11	«Qishloq qur bank» ATB	1689	15478	17167
12	«Ipak Yo'li» AITB	3453	11250	14703
13	«Asia Alliance Bank» ATB	1637	6138	7775
14	«O'zsanoatqurbank» ATB	2594	2739	5333
15	«Turon» ATB	1921	3043	4964
16	«Trastbank» XABB	2507	1829	4336
17	«Davr-bank» XATB	2371	1321	3692
18	«Invest Finance Bank» XATB	1381	1642	3023
19	«Orient Finans» XATB	878	1362	2240
20	CHEKI «Savdogar» ATB	577	1580	2157
21	«Universal bank» XATB	758	581	1339


<sup>10</sup>Manba: www.cbu.uz

22	«KDB Bank O'zbekiston» AJ	331	747	1078
23	«Ravnaqbank» XATB	479	210	689
24	«Turkiston» XATB	413	151	564
25	«Uzbekiston-Turkish Bank» AJ	182	176	358
26	Eron «Soderot» banki	5	13	18
<b>Jami</b>		<b>64021</b>	<b>501243</b>	<b>565264</b>

Shu jumladan O'zbekiston Respublikasining «Elektron to'lovlar to'g'risida»<sup>11</sup>gi Qonunini 4-moddasiga muvofiq, milliy to'lov tizimi negizida Markaziy bankning yagona Banklararo elektron to'lov tizimi, tijorat banklarning ichki to'lov tizimlari hamda bank plastik kartalari bo'yicha barcha tijorat banklarini qamrab olgan «Uzkart» banklararo chakana to'lov tizimi, «CLICK», «Uz-to'lov», «Uz-paynet», «Sms-to'lov» va boshqa bir qator onlayn chakana to'lov tizimlari faoliyat yuritmoqda. Banklararo to'lov tizimi banklar o'rtasidagi milliy valyutada elektron to'lovlarni banklarning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Banklararo to'lov tizimining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Banklararo to'lov tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shaxsiy mulki hisoblanadi. Banklararo to'lov tizimining ishtirokchilari va foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlari banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va xizmat ko'rsatish uchun foydalanuvchi banklarning Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi bilan, banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlar o'tkazish uchun esa — Axborotlashtirish Bosh markazi bilan tuzilgan ikki tomonlama shartnoma asosida tartibga solinadi.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasining «Elektron to'lovlar to'g'risida»gi Qonunini 2005 yil 16 dekabr



### 1.2.1-rasm.Elektron hujjatlarning o'tish sxemasi<sup>12</sup>

Ushbu 1.2.1-rasmdan ko'rinib turibdiki elektron to'lov hujjatlari dastlab mijoz tomonidan bank filiallariga keyin esa ushbu bankning bosh bankiga uzatiladi va oxirida Markaziy bankning Toshkent shahridagi Hisob-kitoblar markaziga uzatiladi va u yerda tekshiriladi. Elektron to'lovlar banklardan faqatgina vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i doirasida amalga oshiriladi, agarda Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazi va bank o'rtasidagi shartnomada boshqa holat kelishilmagan bo'lsa.

1995 yilda O'zbekistonda ilk marotaba milliy valyutada kredit va debet to'lov plastik kartochkalari muomalaga chiqarildi. 2004 yil 24 sentabrda 445-son bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori doirasida yagona umumrespublika protsessing markazi tashkil etildi. U savdo tashkiloti yoki xizmatlar sohasiga yoxud plastik kartochka egasiga qaysi bank orqali xizmat ko'rsatilayotganidan qat'i nazar, bank operatsiyalarini barcha savdo shoxobchalarida yagona rejimda olib borish imkonini beradi<sup>13</sup>.

<sup>12</sup> Manba:www.cbu.uz

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori №445 2014 yil 24 sentabr

Ayni paytda, Yagona umumrespublika protsessing markazi so'm plastik kartochkalarini muomalaga chiqaruvchi tijorat banklarni birlashtiradi. Markazda "UZKART" so'm plastik kartochkalari bo'yicha naqd pulsiz hisob-kitoblar banklararo to'lov tizimi tashkil etilgan. O'zbekistonda hozirda plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitob qilish tizimi juda keng tarqalgan. Joylarda plastik kartochkalar egalariga kecha-kunduz xizmat ko'rsatishga imkon beruvchi axborot-malumot terminallari tarmog'i ishlab turibdi, terminallar, bankomatlar va infokiosklarni ta'mirlash bo'yicha servis xizmatlari tashkil etilgan. Mamlakatimizning elektron tizimga o'tishining afzalliklari ko'p. Shulardan bittasi inflatsiyaning kamayishi. Hamda tadbirkorlik sub'ektlari uchun elektron hisob-kitob qilish qulaydir. Shu jumladan, yildan yilga plastik kartalar soni oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitob quyidagi shakllarda amalga oshiriladi<sup>14</sup>:

- to'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar;
- inkasso bo'yicha hisob-kitoblar;
- akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar;
- cheklar bilan hisob-kitoblar.


O'z navbatida, bank tizimida naqd pulsiz hisob-kitoblarning zamonaviy shakli bank plastik kartochkalari muomalasini kengaytirish va takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Plastik kartochkalining joriy qilinganligi mamlakatimizga katta samara keltirmoqda. Shuningdek mamlakatimizda elektron hukumatdan ham keng foydalanib kelinmoqda. Quyidagi 1.2.4-diagrammadan ko'rinib turibdiki 2000 yilda muomlaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 32 mingni tashkil etgan bo'lsa, oradan 15 yil vaqt o'tib ya'ni 2015 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 13,4 mln donani tashkil etdi. Bu esa 2014 yilga boshiga nisbatan 2,4 mln donaga ortganini bildiradi. 2015 yilgi davlat dasturi to'liq va samarali bajarilsa bundanda yaxshi natijalarga erishamiz degan umiddamiz.

---

<sup>14</sup>O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida» qonuni 2013 yil 3 iyun

## 1.2.4-diagramma

### Tijorat banklari tomonidan muomlaga chiqarilgan plastik kartalar soni ming dona (2015 yil 1 yanvar holatiga)<sup>15</sup>




Mamlakatimiz iqtisodiyotida ro'y berayotgan yangilanishlar, har bir tarmoqda qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, muhimi, aholining turmush farovonligi oshishi zahirida moliya muassasalarining salmoqli hissi bor. Gap shundaki, banklar tomonidan ko'rsatilayotgan zamonaviy va sifatli xizmatlar, mijozlar uchun imtiyozli shartlar asosida ajratilayotgan mablag'lar ko'plab istiqbolli loyihalarni tezkorlik bilan ro'yobga chiqarish, minglab yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini bermogda. Hamda chakana savdo va pullik xizmat ko'rsatish sub'ektlariga o'rnatilgan to'lov terminallari soni ham tobora ortib bormogda. Aholining ish-haqi plastik kartochkaga o'tirilganligi sababli aholi uchun plastik kartochka orqali hisob-kitob qilish qulaydir. Masalan, 2000 yilda o'rnatilgan hisob-kitob to'lov terminallar soni 872 donani tashkil etgan bo'lsa (1.2.5-diagramma), 2011 yilning boshiga kelib 85,7 ming donani tashkil etdi. Keyinchalik tadbirkorlarimizning oshib borishi natijasida 2015 yil 1 yanvar holatiga ko'ra bu ko'rsatkich 158,8 ming donani tashkil qildi.

<sup>15</sup>Manba:www.cbu.uz

## 1.2.5-diagramma

### Tijorat banklari tomonidan o'rnatilgan hisob-kitob terminallar soni (2015 yil 1 yanvar holatiga)<sup>16</sup>




Bank xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari aholiga sifat ko'rsatish darajasi, zamonaviy bank xizmatlarining joriy etilganligi, banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidlilik darajasi bilan baholanadi. Umuman olganda, bank infratuzilmasining tobora kengayib va takomillashib borayotganligi, o'z navbatida, bank xizmatlari bozorida raqobat muhitining va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining yanada yaxshilanishiga hamda aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasining oshishiga xizmat qilmoqda. Aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasining ortishi bu aholining bank bo'lgan ishonchi ortishi demakdir. Shu jumladan, mamlakatimizning bank tizimi ham xorij bank tizimiga yetishib bormoqda.

<sup>16</sup>Manba:www.cbu.uz

## 1.2.5-diagramma

### Tijorat banklari tomonidan o'rnatilgan bankomat va infokioskalar soni (2015yil 1 yanvar holatiga)<sup>17</sup>



1.2.5-diagrammadan ko'rinib turibdiki yildan yilga o'rnatilgan bankomat va infokioskalar soni oshib bormoqda. 2000 yilda o'rnatilgan bankomat va infokioskalar soni bilan 2015 yil boshiga nisbatan taqqoslaganda ancha farq qiladi. 2000 yilda 98 tani tashkil etgan bo'lsa 2015 yilga kelib 1870 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlarning oshishi mamlakatimizda elektron pul tizimi rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Quyidagi 2-jadvalda respublikamiz viloyatlarining 2015 yil 1 yanvar holatiga ko'ra muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari terminallari, bankomat va infokioska to'g'risida ma'lumotlar berilgan. O'tgan yilga nisbatan hamma viloyatlarda o'sish kuzatilga. Shuningdek to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar 2015 yil 1 yanvar holatiga 22,8 trln so'mni tashkil etdi. Bu oldingi yillarga qaraganda ancha yaxshi natija desak mubolag'a bo'lmaydi.

<sup>17</sup>Manba:www.cbu.uz

**2015 yil 1 yanvar holatiga muomalaga chiqarilgan bank plastik  
kartochkalari terminallari, bankomat va infokioska to'g'risida ma'lumotlar  
(viloyatlar bo'yicha)<sup>18</sup>**

Hududlar	Muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalar soni	Banklar tomonidan o'rnatilgan terminallar soni	Banklar tomonidan o'rnatilgan bankomat va infokioskalar soni	2014 yil davomida terminallar orqali amalga oshirilgan to'lovlar(mln so'mda)
Qoraqalpog'iston Res.	755 129	8 890	50	1 251 753
Andijon	854 874	10 927	113	1 461 802
Buxoro	887 506	10 331	92	1 546 762
Jizzax	438 549	6 222	32	676 002
Qashqadaryo	1 179 747	11 579	64	1 898 848
Navoiy	589 363	7 979	89	1 130 160
Namangan	862 386	8 425	102	1 228 102
Samarqand	1 094 277	13 482	127	1 804 744
Surxondaryo	766 253	8 927	92	1 205 816
Sirdaryo	363 812	4 555	31	450 368
Toshkent	827 733	14 131	70	1 885 646
Farg'ona	1 306 171	13 994	153	1 985 482
Xorazm	559 091	7 073	58	849 013
Toshkent sh.	2 964 539	32 275	797	5 384 233
<b>Jami</b>	<b>13 449 430</b>	<b>158 790</b>	<b>1 870</b>	<b>22 758 725</b>

<sup>18</sup> Manba:www.cbu.uz

### **1.3. 2011-2015-yillarda respublika bank-moliya tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish**

Mamlakatimiz tomonidan olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat, tarkibiy o'zgarishlar, shu jumladan, bank tizimida olib borilayotgan bosqichma-bosqich va aniq maqsadli islohotlar mamlakatimiz moliya-bank tizimining barqaror rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov ushbu so'zlarni keltirib o'tadi «Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda eng muhim omil bo'ladi».<sup>19</sup>

2015 yilda bank tizimini isloh qilish va yanada rivojlantirishda asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «2011 - 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar»<sup>20</sup> dasturida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining bank tizimiga oid boshqa qarorlarida belgilab berilgan vazifalarning sifatli bajarilishini ta'minlashga qaratildi. Shuningdek, 2015 yil uchun bank tizimini isloh qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2014 yil 28 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2013 yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti haqida» gi SQ-440-II sonli qarorida bank tizimi oldiga qo'yilgan ustuvor vazifa va topshiriqlar ijrosi inobatga olingan.

Yuqoridagi prezidentning PQ- 1438-sonli Qarorida respublika moliya-bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, banklar va butun moliya-bank tizimi faoliyatiga yondashuvlarni hamda baholash tizimini

---

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, Xalq so'zi, 2015 yil, 17 yanvar

<sup>20</sup> «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» PQ-1438 2010 yil 26 noyabr

tubdan o'zgartirish, hamma tomonidan qabul qilingan xalqaro normalar, standartlar va baholash ko'rsatkichlariga muvofiq bank faoliyatini tashkil etishning yanada yuqoriroq darajasiga chiqishni ta'minlash maqsadida quyidagilar respublikaning moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

-baza qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlar talablariga muvofiq, tijorat banklarini yanada kapitallashtirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, resurs bazasini ko'paytirish, aktivlar sifatini yaxshilash, bank ishini takomillashtirish hisobiga banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini oshirish;

-omonatchilar uchun kafolatlarni kuchaytirish va bank tizimiga aholi hamda xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash, yangi jozibali omonatlar va depozitlarni tatbiq etish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko'lamini kengaytirish yo'li bilan aholi hamda xo'jalik sub'ektlarining bo'sh mablag'larini bank aylanmasiga keng jalb etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan xalqaro normalar, mezonlar va standartlarga asoslangan hamda alohida banklar va umuman bank tizimining butun dunyoda qabul qilingan yanada yuksakroq baholash ko'rsatkichlari darajasiga chiqish yo'lidan olg'a siljib borishini xolisona baholash imkonini beradigan tijorat banklari va butun moliya-bank tizimi faoliyatini baholash va tahlil qilishning zamonaviy tizimini joriy etish;

-moliya-bank faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, zamon talablari va xalqaro normalar hamda standartlarga muvofiq holda amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda yangi qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlar qabul qilish;

-tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini kuchaytirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklari ishtirokini yanada kengaytirish, loyihalarni ekspertiza qilish va xatarni baholash tizimini takomillashtirish, kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida oldini

olish choralari ko'rish yo'li bilan tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash;

-nobank moliya tashkilotlari, lizing, sug'urta va auditorlik kompaniyalarining rolini yanada oshirish hamda tarmog'ini rivojlantirish, xalqaro normalar va standartlarga muvofiq ularning barqarorligi va samaradorligini ta'minlash, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar turi va ko'lamini kengaytirish, moliya bozori infratuzilmasi institutlarini mustahkamlash;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyalashtirishning, aholi bandligi va farovonligini oshirishning g'oyat muhim vositasi sifatida mikromoliyalash sohasi rivojlanishini rag'batlantirish;

-tijorat banklarida hisob-kitob va hisobotlarning yangicha yondashuvlarini shakllantirish hamda zamonaviy texnologiyalari va uslublarini joriy qilish, moliya-bank axboroti saviyasi hamda sifatini oshirish, etakchi xalqaro reyting tashkilotlari talablariga muvofiq undan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlash;

-respublika tijorat banklari va moliya institutlarini dunyoda qabul qilingan standartlar, uslubiyatlar va baholash ko'rsatkichlari tizimida ishlay oladigan, professional tayyorlangan yuqori malakali mutaxassislar bilan mustahkamlash, moliya-bank faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish.

Xususan, ushbu vazifalar doirasida 2015 yilda respublika bank tizimining barqarorligini yanada oshirish, bank nazorati tizimini Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida takomillashtirish, tijorat banklarining resurs bazasini yanada mustahkamlash, ularning investitsion faolligini kuchaytirish hamda yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha investitsion loyihalarni moliyalashtirishda banklarning ishtirokini yanada kengaytirish kabi muhim chora-tadbirlarni davom ettirish rejalashtirilmoqda.

2015-yil 17 yanvar kuni Prezident Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar

Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida bank tizimidagi islohatlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda eng muhim omil bo'lgani ta'kidlangan. Ta'kidlab o'tish joizki, 2014 yil davomida bank tizimida ijobiy natijalarga erishildi. Shuningdek, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli 2014 yil yakunlariga ko'ra banklarning jami kapitali 2013 yil yakuniga nisbatan 25 foizga o'sdi. Oxirgi 5 yillikda bu ko'rsatkich 2,4 barobarga o'sgan.

Yurtimiz bank tizimi moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili tijorat banklari barqarorligining sezilarli darajada oshganligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, banklar kapitalining yetarlilik darajasi ko'rsatkichi tavakkalchilik hisobga olingan aktivlarga nisbatan 23,8 foizni tashkil qildi va bu umumqabul qilingan xalqaro me'yordan(8%) deyarli 3 barobar yuqoridir. Bank tizimi likvidligi 64,6 foizni yoki qabul qilingan me'yordan 2 barobar ziyodni tashkil etdi(yuqori baho 30 % dan ortiq).

Bundan tashqari banklarda korporativ boshqarish sifatini oshirish, banklarning kapitalini shakllantirish, xatarlarni baholash va boshqarish borasidagi ishlarni tashkillashtirish, ichki nazorat xizmatlari faoliyat ustidan nazoratni kuchaytirish borasidagi amalga oshirilgan ishlar natijasida bank tizimining barqarorligi yanada oshdi. Shuningdek, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi 2014 yilning 1 yanvaridan 12 foizdan 10 foizga tushirilgandi (1.3.1-jadval) 2015 yil boshidan esa Markaziy bankning qayta moliyalashtirish darajasi 10 foizdan 9 foizga tushirildi. Qayta moliyalashtirish stavkasining pasaytirilishi bank tizimi faoliyatida kredit hisobidan moliyalashtiradigan loyihalar soni va kreditlar hajmining ko'payishi hamda ularni rentabelligining oshishini ta'minlaydi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishdagi loyiha xarajatlarini kamaytiradi.

### 1.3.1-jadval

#### O'zbekiston respublikasi markaziy banki qayta moliyalash stavkasi<sup>21</sup>

<b>Amal qilish muddati</b>	<b>Foiz</b>
02.05.1994 — 30.09.1994	150
01.10.1994 — 31.01.1995	225
01.02.1995 — 19.03.1995	250
20.03.1995 — 30.06.1995	300
01.07.1995 — 31.07.1995	120
01.08.1995 — 30.06.1996	84
01.07.1996 — 31.07.1996	60
01.08.1996 — 01.12.1996	48
01.01.1997 — 31.10.1997	39,6
01.11.1997 — 31.12.1997	30
01.01.1998 — 31.03.2000	36
01.04.2000 — 30.04.2000	30
01.05.2000 — 31.05.2000	28,8
01.06.2000 — 30.06.2000	27,6
01.07.2000 — 31.12.2001	24
01.07.2000 — 31.12.2001	24
16.07.2003 — 09.09.2003	24
10.09.2003 — 04.07.2004	20
05.07.2004 — 20.12.2004	18
21.12.2004 — 14.07.2006	16
15.07.2006 — 31.12.2010	14
01.01.2011 — 31.12.2013	12
01.01.2014 — 31.12.2014	10
01.01.2015 — ...	9

<sup>21</sup> Manba:www.cbu.uz

2015 yilda bank tizimi barqarorligini ta'minlash maqsadida bank nazoratini xalqaro andozalarga muvofiq holda takomillashtirish ishlari davom ettirilmoqdi. Bank nazorati sohasidagi islohotlar banklarning kreditorlari, omonatchilari va mijozlari manfaatlarining himoyalanih darajasini yanada oshirish, banklarning o'rnatilgan iqtisodiy normativlar va qonunchilik talablariga to'liq rioya qilishlariga erishish tadbirlari orqali amalga oshirildi. Xususan, tijorat banklarining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida:

– «Tijorat banklarining moliyaviy holati va barqarorligini baholash hamda ularning natijalarini ko'rib chiqish tartibi» va «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish tartibi»ga asosan, tijorat banklarining kapital etarliligi, likvidliligi, aktivlar sifati va diversifikatsiyasi hamda bank Boshqaruvi organlarining faoliyati samaradorligi;

– bank operatsiyalarini amalga oshirishda operatsion va bozor tavakkalchiliklarini baholash bo'yicha «Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, har bir bankda bevosita bank Kengashiga bo'ysunuvchi Tavakkalchiliklarni nazorat qilish qo'mitalarining faoliyati doimiy ravishda monitoring qilib borilmoqda.

## **II-BOB. DAT “ASAKA BANK” XIZMATLARINING KO’RSATILISHI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’NALISHLARI**

### **2.1. DAT “Asaka bank” faoliyati va strukturasi**

«Asaka» davlat-aksiyadorlik tijorat banki mamlakatimizning moliyaviy xizmatlar bozorida 19 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat ko’rsatib kelmoqda. Bank 1995 yilda tashkil etilgan. Kapital va aktivlar hajmi bo’yicha respublika tijorat banklari o’rtasida yetakchi banklardan biridir. Hududiy tarmoq O’zbekiston Respublikasi butun hududini qamrab olib 26 ta filial, va 95 ta mini-bankdan, 513 jamg’arma, maxsus va ko’chma kassadan iborat. Moliya bozorida keng hajmda an’anaviy va zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etuvchi yirik universal moliyaviy-kredit instituti muassasasi sifatida o’rin egallangan. Bank tomonidan muntazam ravishda mijozlar bazasini kengaytirish bo’yicha faol ishlar olib borilmoqda.

«Asaka» bank xizmatlaridan foydalanuvchi xo’jalik yurutuvchi sub’yektlarning soni — 32,9 ming nafardan ortiq. Ular qatorida mashinasozlik, aniq mashinasozlik va asbobsozlik, metallarga ishlov berish, konchilik, energetika, qurilish majmuasi, paxtani qayta ishlash sanoati, to’qimachilik sanoati, dori-darmon ishlab chiqarish, nashriyot, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo’jaligi, transport va aloqa, savdo va umumiy ovqatlanish, xizmat ko’rsatish kabi va iqtisodiyotning boshqa sohalarida faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar vakillari mavjud. Xizmatlardan foydalanayotgan jismoniy shaxslarning soni 1 448,4 ming nafardan ortiq. Bankning chakana xizmatlaridan muntazam ravishda foydalanuvchilar soni 1,4 million nafardan oshdi.

«Asaka» bank tashqi iqtisodiy hamkorlikning faol ishtirokchisi. Mamlakatimiz iqtisodining strategik sohalarini rivojlantirishga bevosita xorijiy sarmoyalarni jalb etishga ko’maklashib kelmoqda. 350 dan ziyod yetakchi xorijiy banklar bilan korrespondent munosabatlari o’rnatilgan.

Nufuzli xorijiy «Euromoney», «Global Finance» va «The Banker» nashriyotlari tomonidan «O’zbekistonning eng yaxshi banki» unvoniga bir necha bor sazovor bo’ldi. «Asaka» bank o’zining xalqaro maydondagi maqomiga katta

etibor qaratadi. Xususan, bank doimiy tarzda xalqaro reyting agentliklari tomonidan yuqori reyting baholariga sazovor bo'lmoqda. 2015 yil 22 yanvarda «Moody's Investors Service» xalqaro reyting agentligi «Asaka» bank reytingini tasdiqladi va barcha reytinglar istiqboli «BARQAROR» deb topildi.

Har bir bankning obro'si va raqobatdoshligi xodimlar, ularning malakaviy darajasi va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati bilan shakllanadi. Shuning uchun kadrlar —«Asaka» Davlat-aktsiyadorlik tijorat bankining o'ta muhim aktivlarining biri. Bankning Bosh ofisida, fiallarida va mini-banklarida 2900 dan ortiq xodimlar ishlashadi, ulardan 1311 nafari bank ishi mutaxassislaridir. Xodimlarning 50,5%i 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar, 50% — ayollardir.

Mini-bank, omonat kassalari, valuta ayirboshlash shaxobchalar, pul o'tkazish ofislari tarmog'i kengayishi va aholiga xizmat ko'rsatish darajasini yaxshilashga qaratilgan boshqa bo'linmalar ochilishi munosabati bilan xodimlar soni oshib bormoqda. Bankning kadr siyosatining asosiy maqsadi — yangilikni tez o'zlashtira oladigan va bozor iqtisodi sharoitlarida samarali faoliyatni ta'minlovchi, yuqori malakali, mas'uliyatli xodimlarni tanlash va tayyorlashdir.

«Asaka» bankka xodim bir nechta nomzoddan suhbatlashish, zarur holatda esa test sinovlarini o'tkazish yo'li bilan ishga qabul qilinadi. Nomzodga qo'yiladigan asosiy talablardan biri — oliy iqtisodiy (bank) ma'lumot va mutaxassislik bo'yicha amaliy tajriba mavjudligidir. Boshlang'ich mutaxassis lavozomiga bank kolleji diplomiga ega shaxslar qabul qilinishi mumkin. Bosh ofisni kadrlar bilan ta'minlovchi manbalardan biri — filiallarda kasbiy tayyorgarlikni o'tgan va malakasini oshirgan xodimlardir.

Ishga qabul qilganda yuqori malakali mutaxassislariga birinchilik beriladi. Bir qator xodimlar Evropa va AQSh universitetlarida O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya Akademiyasida ta'lim olishgan. Bank ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanmoqda va ularni mas'uliyatli ishlarga qo'ymoqda. Yetakchi menejer va mutaxassislar bank hisobidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qoshidagi davlat va ijtimoiy qurilish Akademiyasi, Oliy biznes maktabi va Bank-moliya Akademiyasiga o'qishga yuborilishadi.

«Asaka» bank fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatish va himoyalashga, shu jumladan, kam ta'minlangan oilalarning moddiy ahvolini yaxshilashga, yuridik va jismoniy shaxslarga ta'lim, fan, madaniyat, san'at, ma'rifatchilik sohasidagi faoliyatlari, shaxsning ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan xayriya faoliyatini muntazam ravishda amalga oshirib kelmoqda. Shuningdek, bank ommaviy sport va jismoniy tarbiya sohasidagi faoliyatga, jismoniy shaxslarga dori-darmon sotib olishda va davolanishda, jarrohlik amaliyoti bilan bog'liq va undan keyingi davrdagi xarajatlarni qoplashda, hamda nogironlarga yordam berib kelmoqda. Shuningdek boshqa turdagi xayriya yordamlari qilib kelmoqda. DAT «Asaka bank» tomonidan 2014 yil davomida jami bo'lib 6,5 mlrd. so'm miqdorida xayriya yordami ko'rsatildi. Bank joriy yilda ham bir qancha xayriya yordamlar qilib bormoqda.

Quyidagilar «Asaka» bankining investitsiya faoliyati sohasidagi eng muhim vazifalari hisoblanadi:

- Mashinasozlik korxonalarini va sanoatning boshqa tarmoqlari mahalliyashtirilishi darajasini oshirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda shuning asosida tashqi va ichki bozorlarda xaridorgir bo'lgan, yangi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish hamda kengaytirish, korxonalarining eksport salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan faol investitsiyaviy faoliyatni amalga oshirish;
- Bankning o'z resurslarini safarbar qilish va ulardan, shuningdek investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish uchun samarali foydalanish, qo'yilgan mablag'larni o'z vaqtida va to'liq qaytarib olinishini ta'minlash;
- Zamonaviy xorijiy yuqori ishlab chiqarish quvvatlariga ega texnologiyalar va uskunalarni tadbiriq etish asosida yangi sanoat ishlab chiqarishlarni tashkil etish hamda faoliyat yuritayotganlarini modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlar mablag'larini jalb etish.
- Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tashqi va ichki bozorlarda sotish istiqbollari chuqur tahlil qilish va loyihani amalga oshirishdan olinadigan

moliyaviy samarani prognozlash asosida investitsiya loyihalarini tanlab olish, kompleks baholash va ekspertiza qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

- Zarar ko'rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, modernizatsiya qilish va barqaror ishlab chiqarish faoliyatini olib borishni, keyinchalik ularni strategik investorlarga sotish uchun tayyorlashni ta'minlaydigan krizisli boshqaruvning zamonaviy usul va mexanizmlaridan foydalanish;

- Mijozlarga, jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish negizida keng miqyosdagi bank va konsalting xizmatlarini ko'rsatish, korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlarni tashqi va ichki bozorlarga olib chiqishda ko'rgazmalar, yarmarkalar tashkil etishda va boshqa shakllar orqali ko'maklashish;

- Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash uchun zamonaviy yuqori ishlab chiqarish quvvatlariga ega mashinalar, uskunalar, texnika va texnologiyalarni lizing shartlari asosida xarid qilishni ta'minlaydigan lizing operatsiyalarini kengaytirish;

- Investitsiya loyihalarini tanlab olish, ekspertiza qilish va amalga oshirish masalalari bo'yicha bank hodimlarini qayta tayyorlash sifati hamda malakasini yanada oshirish, tijorat banklarini bankning investitsiyaviy faoliyatini aktivlashtirish vazifalarini samarali echish qobiliyatiga ega, professional tayyorlangan yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash.

Quyidagi 2.1.1-jadvalda DAT "Asaka bank" aktsiyadorlari ro'yhati berilgan. Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki hozirgi paytda DAT "Asaka bank" ning aktsiyadorlari soni 14 tani tashkil qilib, ular O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 55,37 %, "Uzavtosanoat" AK 13,24 %, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi 13,22 %, «UzGazOil» MCHJ 4,6 %, "Olmaliq TMK" AJ 6,24 %, "O'zbekiston temir yo'llari" DATYK 2,26 %, "O'zbektelekom" AK 0,45 %, "Uzagrosug`urta" DASK 0,45 %, "Uzbekinvest" NKEIS 0,11 %, "Xalq Sug`urta" MCHJ SK 0,12 %, Buxoro NQIZ UK 0,98 %, Farg'ona NQIZ USHK

0,98 %, “Uzmetkombinat” AJ 0,98 %, Navoiy TMK AJ 0,98 % li aksiyalariga egalik qilib kelmoqdalar.

## 2.1.1-jadval

### "Asaka" bank aksiyadorlari ro'yxati.

(2015 yil 1 yanvar holatiga)<sup>22</sup>

<b>№</b>	<b>Aksiyadorlar nomi</b>	<b>Ulushi (%)da</b>
1	O'zR Moliya vazirligi	55,37
2	"Uzavtosanoat" AK	13,24
3	O'zR Tiklanish va taraqqiyot fondi	13,22
4	«UzGazOil» MCHJ	4,60
5	"Olmaliq TMK" AJ	6,24
6	"O'zbekiston temir yo'llari" DATYK	2,26
7	"O'zbektelekom" AK	0,45
8	"Uzagrosug`urta" DASK	0,45
9	"Uzbekinvest" NKEIS	0,11
10	"Xalq Sug`urta" MCHJ SK	0,12
11	Buxoro NQIZ UK	0,98
12	Farg'ona NQIZ USHK	0,98
13	“Uzmetkombinat” AJ	0,98
14	Navoiy TMK AJ	0,98
<b>JAMI:</b>		<b>100</b>

<sup>22</sup> Manba: asakabank.uz

## **2.2. Bank tizimini rivojlantirishda kredit salohiyati va kredit berish tartibini tahlili**

Bankning kredit siyosati – kreditlash jaroyonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyatini va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi xujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart. Tijorat banklarining kredit siyosati alohida hujjat sifatida ishlab chiqariladi va bank Kengashi yomonidan tasdiqlanadi<sup>23</sup>.

O'zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga "Banklar va banklar faoliyatini to'g'risida"gi qonun asosida boshqa meyoriy hujjatlarga va boshqa hujjatlarga muvofiq ravishda kredit berish tartibi amalga oshiriladi. Tijorat banklari xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarga ularning mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar shartnoma assosida qisqa va uzoq muddatli kreditlar beradilar. Kredit mijozning hisob-kitob varag'i joylashgan bankda beriladi. Zarar ko'rib ishlaydigan nolikvid balansga ega bo'lgan xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarda kredit berilmaydi. Ilgari berilgan ssudalar esa belgilangan tartibda nobarqarorlik xo'jasizlik va zararlarni qoplash uchun foydalanishga yo'l qo'ymaydi. Kreditlar muddatiga ko'ra qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli turlarga bo'linadi.

-Qisqa muddatli kredit amal qilish muddati 12oydan oshmaydigan ssuda bolib uning muddatining uzaytirilishi kreditlanayotgan tadbirlarni o'tkazish muddati va ularning qoplanishi va boshqa shartlardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qisqa muddatli ssudalar kreditlarning boshqa turlariga nisbatan likvidliroq hisoblanadi.

- O'rta muddatli 1 yildan 3-5 yilgacha beriladi
- Uzoq muddatli kreditlar 3-5yildan ortiq muddatga beriladi

Tijorat banklarida kredit berish 5 tamoyil asosida amalga oshiriladi. Bular quyidagilar:

---

<sup>23</sup> «Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida nizom».2000 yil 22 fevral

1. Kreditning muddatliligi
2. Kreditning qaytarilishligi
3. Kreditning ta'minlanganliligi
4. Kreditning to'lovliligi
5. Kreditning maqsadliligi

Kreditlar tijorat banklari tomonidan kreditlanayotgan tadbirning o'z-o'zini qoplashini hisobga olgan holda quyidagi muddatlar asosida beriladi:

- qarz oluvchi o'z faoliyatini boshlashi uchun aylanma mablag'larni shakllantirish va investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga – 12 oy muddatgacha;
- aylanma mablag'larni to'ldirishga – 18 oy muddatgacha;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishni tashkil qilish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga – 24 oy muddatgacha.

Qarz oluvchi yuridik mijozlar tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida quyidagi ta'minot turlaridan birini taqdim etishi mumkin:

- mol – mulk va qimmatli qog'ozlar garovi;
- tijorat banki yoki sug'urta kompaniyasining kafolati;
- uchinchi shaxslarning kafilligi;
- qarz oluvchi tomonidan olingan kreditni qaytarmaslik xatarining bank foydasiga sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi;
- ta'minotning qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turlari.

Tijorat banklari kreditlar bo'yicha kreditlashning imtiyozli davrini belgilashlari mumkin. Shuningdek, kreditlar qonun xujjatlarida taqiqlangan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun ajratilishi va ilgari olindan kreditlarni yoki tijorat bankining «Kredit siyosati»da belgilangan boshqa qarzlarni qaytarish uchun berilishi mumkin emas. Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori kredit shartnomasiga muvofiq belgilanadi<sup>24</sup>.

Kreditlash bo'limlari kreditlarni amaldagi qonunchilik talablari hamda tijorat banklarining ichki me'yoriy xujjatlari talablari doirasida belgilangan muddatlarda

---

<sup>24</sup>«Kichik tabirkorlik sub'ektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to'g'risida»gi nizom 2013 yil 23 noyabr

ko'rib chiqishi va kredit ajratilishi bo'yicha kredit qo'mitalariga kreditlashning maqsadga muvofiqligi yoki rad etish to'g'risidagi xulosa berilishi lozim. Agar kredit qo'mitasi ijobiy qarori qabul qilsa qarz oluvchi bilan kredit shartnomasi tuziladi. Tijorat banklari va qarz oluvchi o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- kredit summasi;
- kredit muddati;
- kredit uchun foiz stavkasi miqdori;
- kreditning maqsadi;
- kredit ta'minotiga oid ma'lumotlar;
- tomonlarning huquq va majburiyatlari;
- tomonlarning javobgarligi;
- qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shartlar.

Kredit shartnomasi tuzilganidan keyin bank filialining rahbari yoki kredit bo'limi boshlig'i (xodimi) o'z vakolatlari doirasida muddat va foiz stavkasini ko'rsatgan holda, ssuda hisobvarag'ini ochish to'g'risida buxgalteriya bo'limiga farmoyish beradi.

DAT "Asaka bank" va uni filiallari tomonidan bir qancha kredit turlari taqdim etiladi va ular quyidagilar:

Oliy oquv yurtlarida tahsil oluvchilarga ta'lim kreditini ajratish shartlari quyidagilardan iborat:

1. Kredit miqdori — ta'lim olish yuzasidan tuzilgan to'lov kontrakti asosida belgilanadi;

2. Kreditning maqsadi — respublikada joylashgan oliy o'quv yurtlari kunduzgi bo'limida tahsil olish uchun;

3. Kredit muddati:

- Bakalavriat bosqichi uchun 10 yil;
- Magistratura bosqichi uchun 5 yil;

4. Ta'lim kreditlari uchun foiz stavkasi miqdori: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking amaldagi qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan

miqdorda belgilanadi (2015 yil boshidan 9 %) va ta'lim kreditini olish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- Ta'lim kreditini olish uchun ariza;
- To'lov kontrakt shartnomasi;
- Yashash joyi to'g'risida berilgan ma'lumotnoma;
- Kredit qaytarilishini ta'minlovchi hujjat;
- Pasport nusxasi.

5. Ta'minot sifatida quyidagilar taqdim qilinishi mumkin:

-Mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi, bank kafolati, uchinchi shaxs kafilligi, kreditni qaytmaslik xatarini sug'urtalash sug'urta polisi.

6. Ta'lim krediti quyidagi xollarda imtiyozli shartlarda beriladi:

-Ta'lim kreditlari chin yetimlarga, «Mehribonlik uylarida tarbiyalanganlarga hamda bolalikdan I va II guruh nogironlariga foizsiz kredit beriladi;

-Kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan talablar uchun kredit bo'yicha qo'shilgan foizlarning 50 foizi tuman Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'laridan to'lanadi;

-Ta'lim kreditlarini bo'yicha mablag'lar kredit shartnomasida qayd etilgan shartlarda har yarim yilda o'qish uchun yillik to'lovning to'liq miqdorini ikki teng qismga bo'lish yo'li bilan o'tkaziladi. Bunda yangidan qabul qilingan talablar uchun birinchi yarim yillikda o'qilganlik uchun boshlang'ich to'lov joriy yilning 15 sentabrigacha, ikkinchi yarim yillik uchun navbatdagi kalendar yilning 1 martigacha to'lanadi. O'qishning ikkinchi bosqichi va undan yuqori kursda o'qiyotgan talabalar uchun birinchi yarim yillikda o'qiganlik uchun to'lov joriy yilning 1 oktyabrigacha, ikkinchi yarim yillik uchun navbatdagi kalendar yilning 1 martigacha to'lanadi;

-Qarzdor tomonidan kreditni qaytarish naqd pulda, shuningdek naqd pulsiz hisob-kitob yo'li bilan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hisobidan amalga oshiriladi;

-Ta'lim kreditlari uchun foiz to'lash ta'lim muassasasiga o'tkazilgan summa berilgan vaqtdan, asosiy qarzni qaytarish esa talaba tomonidan oily ta'lim muassasasida o'qishning ta'limning ushbu turi uchun rasmiy belgilangan muddati tugallangandan so'ng, ayrim kurslarda takroran o'qish muddati hisobga olinmasdan, uch oy o'tgandan so'ng boshlanadi.

Aholiga iste'mol kreditlari ajratishning asosiy shartlari:

1. Kredit miqdori — eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha;
2. Kreditning maqsadi — mamlakatimizda ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlar (xizmat) larning xaridi uchun ajratiladi, jumladan:

- Uy jihozlari, yumshoq va boshqa mebellar;
- kompyuter, radio va tele-aparaturalar;
- to'y va yubiley marosimlarini o'tkazishga;
- «GM Uzbekistan» YOAJ da ishlab chiqarilgan shaxsiy avtomobillarni ta'mirlashga;

- Mamlakatimizda joylashgan turli dam olish maskanlariga yo'llanmalar olishga;

3. Kredit mablag'i- ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi yoki uni sotuvchi tashkilotning bankdagi hisob varag'iga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

4. Kreditning muddati 3 yilgacha;

5. Kredit ustama foizi:

- Umumiy tartibda yillik — 14%;
- Yosh oilalar uchun — kredit asosiy qarzni qaytarish bo'yicha olti oylik imtiyozli davr bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

5. Kredit ta'minoti — mulk yoki qimmatli qog'oz garovi, bank kafolati, 3-shaxs kafilligi, kreditni qaytmaslik xatarini sug'urtalash sug'urta polisi.

6. Mijozning loyihadagi ishtiroki kredit miqdorining 25 foizidan kam bo'lmagan qismini tashkil qilishi lozim.

Mikrokreditdan foydalanishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

1. Mikrokredit miqdori — amaldagi eng kam oylik ish haqining 1 000 baravarigacha;

2. Kreditlash maqsadi — tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va kengaytirish jumladan:

-Aylanma mablag'larini to'ldirish;

-Chorvachilikni rivojlantirish;

-Parrandachilikni rivojlantirish;

-Qishloq ho'jalik texnikalarini sotib olish;

-Xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish va boshqa maqsadlar.

3. Kreditlash muddati — 3 yilgacha;

4. Kredit foiz stavkasi miqdori — O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasi va undan yuqori;

5. Ajratilgan kredit mablag'i milliy valyutada taqdim etiladi;

6. Mijozning loyihadagi ishtiroki kredit miqdorining 25% idan kam bo'lmagan qismini tashkil qilishi lozim.

«Asaka» bank tizimida ipoteka kreditlari, doimiy ish joyiga, yashash joyidan ro'yhatdan o'tgan va o'z faoliyati natijasida olingan daromadga va boshqa daromadlarga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga beriladi va ipoteka kreditini olish shartlari:

1. Kredit miqdori:

- yakka tartibda qurilgan uy-joyni rekonstruksiya qilish, ko'p qavatli uylardan xonadon sotib olish uchun qonun-hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 2 500 baravarigacha;

- yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va sotib olish uchun-qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 3 000 baravarigacha;

2. Kredit muddati 15 yilgacha;

3. Kredit ustama foizi;

-Umumiy tartibda — yillik 12 % dan 18% gacha

-Yosh oilalarga — 3 yillik imtiyozli davri bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasidan oshmagan miqdorda;

4. Kredit ta'minoti — sotib olinayotgan uy-joy va yoki boshqa likvid ta'minot turlari.

5. Mijozning loyihadagi ishtiroki qurilayotgan, sotib olinayotgan yoki ta'mirlanayotgan turar joyining 25 foizdan kam bo'lmagan qismni tashkil qilishi lozim.

6. Yakka tartibdagi uy-joy yoki ko'p qavatli uylardan xonadon sotib olish uchun ipoteka krediti ajratishda bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

-So'ralayotgan kredit summasini ko'rsatgan holda kredit olish uchun ariza;

-Sotuvchining uy joyga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning notarial tasdiqlangan nusxalarini ilova qilgan holda sotiladigan yakka tartibdagi uy-joy yoki xonadonning kelishilgan qiymati ko'rsatilgan oldi-sotdisi to'g'risida dastlabki shartnoma;

-Sotuvchi, qarz oluvchi va shu bitim bilan bog'liq bo'lgan boshqa shaxslarning passport nusxalari;

-Qarz oluvchining daromadlari to'g'risidagi oxirgi 12 oy uchun doimiy ish joyidan ma'lumotnoma;

-Qarz oluvchining nomiga ochilgan jamg'arma omonatiga joylashtirilgan mablag'ni tasdiqlovchi bankning ma'lumotnomasi (bankning tegishli xisob raqamidan ko'chirimi);

-Qarz oluvchining oilasi tarkibi to'g'risida yashash joyidan ma'lumot;


-Sotib olinayotgan yakka tartibdagi uy-joy yoki ko'p qavatli uydagi xonadonning qiymati bo'yicha mustaqil baholovchining baholash hisoboti;

-Zarur holatlarda bank qarz oluvchidan qo'shimcha hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

Shu jumladan 2015 yil 1 aprel holatiga respublikamiz iqtisodiyotining turli sohalariga yo'naltirilgan bank kredit qo'yilmalari hajmi 2765,2 mlrd.so'mni tashkil qildi (2.2.1-diagramma). 2014 yil 1 aprel holatiga nisbatan 23 foiz oshgan.

## 2.2.1-diagramma

### Bank kredit qo'yilmalari (mlrd. so'm)<sup>25</sup>



«Asaka» bank tashkil etilganidan boshlab asosiy e'tiborni respublikamiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratib kelmoqda. Jumladan, Bank tomonidan avtomobilsozlik, tog'-kon, neft-gaz, kimyo, energetika, yengil, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, transport, qurilish va boshqa tarmoqlarning investitsion loyihalari faol moliyalashtirib kelinmoqda.

Shuningdek, «Asaka» bank tomonidan 2015 yil birinchi choragi mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Farg'ona, Jizzax, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida aholini uy-joy bilan ta'minlash maqsadida, uy-joy qurilishi uchun pudratchi tashkilotlarga kredit ajratish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Ushbu maqsadlarga bank tomonidan 31,95 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Bugungi kunga kelib «Asaka» bank kreditlari hisobiga 46 ta ko'p qavatli turar joy binolari qurib bitkazildi va 1470 xonadon barpo etildi. Buning natijasida shuncha oila uy-joy bilan ta'minlandi.

<sup>25</sup>Manba:asakabank.uz


Jumladan, Bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash va ularga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari turlarini kengaytirish, sifatini yanada yaxshilash va kredit mablag'lari hajmini ko'paytirish bo'yicha ishlarni faol davom ettirib, 2015 yil birinchi choragi davomida barcha moliyalash manbalari hisobidan kichik biznes subyektlariga 255,5 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Shuningdek ayollar tadbirkorligini tashkil etish va rivojlantirishga 25,9 mlrd.so'm, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun 39,5 mlrd.so'm, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 2,2 mlrd.so'm, ta'lim muassasalari bitiruvchilariga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun 1,4 mlrd.so'm, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarga 137,4 mlrd.so'm miqdorida va qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jalik korxonalariga moliyaviy ko'mak berish orqali agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va samarali o'tkazish uchun 15,5 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Ushbu mablag'lar qishloq xo'jaligini turli rusumdagi yuqori unumli zamonaviy qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlash, davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla xom ashyosini yetishtirish, chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish va boshqa maqsadlar uchun yo'naltirildi.

Hozirgi kunda 90dan ortiq turdagi milliy va xorijiy valyutadagi omonatlar joriy qilingan bo'lib, omonatlarni bankning barcha filiallarida rasmiylashtirish mumkin. Omonatlarga qo'yilgan mablag'lar belgilangan muddatlarda omonatchilarning birinchi talablariga binoan naqd pulda ta'minlab berilmoqda. 2015 yil birinchi chorakda 3 ta yangi omonat turlari ochildi. Bank tomonidan naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini keskin qisqartirish va aholining bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish bo'yicha olib borilgan faol ishlar natijasida aholi omonatlari qoldig'i 2015 yil 1 aprel holatiga 75,7 mlrd.so'mga o'sdi va so'm ekvivalentida 500,9 mlrd. so'mni tashkil etdi (2.2.2-diagramma).

## 2.2.2-diagramma

### Bank hisobidagi aholi omonatlari qoldig'i (mlrd. so'm)<sup>26</sup>



Omonatchilar soni 70,0 ming nafarga o'sdi va 1 448,0 ming nafardan oshdi. Bu esa aholining Bankga bo'lgan ishonchini oshganligidan dalolat beradi va «Asaka» bank tizimida bu sohada olib borilayotgan ishlarning to'g'ri yo'lga qo'yilganligidan dalolat bermoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 6 iyundagi 175-sonli qaroriga asosan O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi huzurida tashkil etilgan Investitsiya loyihalari bo'yicha loyiha hujjatlarini tayyorlashni moliyalashtirish jamg'armasi tomonidan 2014 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etilgan loyihalarning 33 tasi ma'qullanib, mazkur investitsiya loyihalari bo'yicha tegishli hujjatlar ishlab chiqarilishi moliyalashtirildi. Shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlarining 105 ta loyihalari doirasida tijorat banklari tomonidan 49,3 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining 2014 yilning oktabr oyida e'lon qilingan tadbirkorlik faoliyatini yuritish shart-sharoitlari bo'yicha «Biznesni

<sup>26</sup>Manba: asakabank.uz


yuritish – 2015» navbatdagi yillik hisobotida biznesni yuritish shart-sharoitlari bo'yicha respublikamizning reyting ko'rsatkichi 2014 yilning o'zida 8 pog'onaga ko'tarildi. Shu jumladan, kreditlash shartlari bo'yicha so'nggi ikki yilda mamlakatimizning reytingi 50 pog'onaga, ya'ni 154-o'rindan 104-o'ringacha ko'tarildi. Bunda ushbu ko'rsatkich bo'yicha ko'tarilish 2013 yilda 24 pog'onani, 2014 yilda esa 26 pog'onani tashkil etdi.

Shuningdek, «Kredit axboroti almashinuvi indeksi» bo'yicha O'zbekiston bank tizimi mavjud 8 balli tizimda 7 ballga baholandi va bu ko'rsatkich Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD)ga a'zo davlatlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqoridir.

2015 yil 1 yanvar holatiga ko'ra iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy hajmi 2014-yil 1 yanvar holatiga nisbatan 31,2 foizga ko'payib, joriy yilning boshiga qadar 34,8 trln so'mni tashkil etdi (2.2.3-diagramma).

### 2.2.3-diagramma

#### Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar miqdori (trln.so'm)<sup>27</sup>




<sup>27</sup>Manba:www.cbu.uz

Shu jumladan ta'kidlab o'tish joizki davlat investitsiya dasturida bank kreditlarning ulushi ham oshib bormoqda. 2015 yil 1 yanvar holatiga ko'ra bu ko'rsatkich 12 foizni tashkil qilib o'tgan 2014 yil bilan bir ko'rsatkichni tashkil etgan(2.2.4-diagramma).

#### 2.2.4-diagramma

**Davlat investitsiya dasturida tijorat bank kreditlarining ulushi (foiz hisobida)<sup>28</sup>**



<sup>28</sup>Manba:cbu.uz

### **2.3. DAT “Asaka bank”ning hozirgi moliyaviy faoliyati tahlili**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy maqsadi - bank aktivlari va passivlaridan samarali foydalanish, ularni joylashtirish va ko‘rsatilgan bank xizmatlari yuzasidan daromad (foizli)larni hamda bank operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha xarajatlar (foizli) ni, shuningdek, budjet va budjetdan tashqari to‘lovlarni o‘z vaqtida hisoblab, yakuniy moliyaviy natijalarni to‘g‘ri aniqlashdan iboratdir. Bunda talabalar banklarda buxgalteriya hisobini o‘rganishda, avvalo, uning korxonalar, budjet va boshqa kredit muassasalarida yuritiladigan buxgalteriya hisobidan tub farqlarini tuchunishlari zarur.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish boshqa korxonalar va tashkilotlarnikiga nisbatan o‘zining operativligi bilan ajralib turadi. Chunki ularda soat 16-00 gacha operatsion kun bo‘lib, shu davr mobaynida amalga oshiriladigan operatsiyalar o‘sha kuniyoq mijozlarning analitik hisobidagi shaxsiy hisobvaraqlarda aks ettiriladi va kundalik balans orqali umumlashtirish usuli bilan nazorat qilib boriladi. Bu pul mablag‘larining saqlanishi, kundalik pul aylanmasi va hisob-kitob kredit munosabatlarining holati, kassa rejasining bajarilishini nazorat qilish imkoniyatini berish bilan birgalikda, pul muomalasi hamda kredit resurslarining aylanishini tartibga solishni ta'minlaydi.

Buxgalteriya hisobining ob'ektlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish va bank faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblash hamda ular bo‘yicha to‘liq ma'lumotlarga ega bo‘lish uchun o‘lchov birliklari (natura, mexnat va pul) dan foydalaniladi. Shu boisdan, tijorat banklarida buxgalteriya hisobini to‘g‘ri yuritishda quyidagi asosiy vazifalarni bajarishni talab qiladi:

- hisob-kitoblardagi mablag‘lar aylanishini tezlashtirish, mijozlarga tez va puxta xizmat ko‘rsatish, hisob-kitob, kassa, valuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to‘g‘ri bajarish;
- bankdan pul mablag‘lari, moddiy boyliklar, shuningdek, qat'iy hisobda turadigan blankalardan foydalanishning qonuniyligini ta'minlash;

- operatsion kun davomida bajarilgan va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatlarning qonuniyligini hamda to'g'riligini nazorat qilish;

- tijorat banklarida bajarilgan va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha moliyaviy natijalarni shakllantirish va ularni to'g'ri aniqlash;

- kundalik balansni tuzish uchun dastlabki hujjat ma'lumotlarini qayta ishlash va ularning har bir hisobvaraqlari bo'yicha taqsimlashni samarali tashkil etish;

- oylik, choraklik va yillik buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tuzish hamda tegishli nazorat organlariga o'z vaqtida taqdim etib borishdan iboratdir.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobining qonuniy va uslubiy asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni, «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari», «Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari» hamda O'zbekiston Respublikasi markaziy banki tomonidan ishlab chiqarilgan me'yoriy hujjatlari hisoblanadi. Ushbu qonuniy hujjatlar buxgalteriya hisobini yuritishda tartibga soluvchi qonuniy hujjatlar hisoblanadi va mulkchilik shaklidan, ya'ni, qaysi tarmoqqa tegishliligidan hamda katta-kichikligidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun amal qilinadi.

Shunday qilib, tijorat banklarida buxgalteriya hisobi fanini o'rganishda uning nazariy asoslarini chuqur o'zlashtirish hamda buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tuzishga oid me'yoriy hujjatlarni ham bilishni taqozo etadi.

Tijorat bank faoliyatini amalga oshirish davomida turli operatsiyalar ro'y berib, bu operatsiyalar natijasida ushbu tijorat bankka tegishli bo'lgan bank mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari tarkibiy hamda qiymat jihatidan o'zgaradi. Demak, tabiiyki, mablag'lar va ular tashkil topish manbalarining o'zgarishi natijasida balansda ham o'zgarishlar ro'y berishiga olib keladi. Sababi, o'zgarish natijasida mablag'larning o'zaro ikki turi yoki mablag' manbalari turlarining ikki yoki undan ortig'i o'zgarishi yoki ham mablag' ham ularning tashkil topish manbalari o'zgarishi mumkin. Bank operatsiyalari amalga oshirish

natijasida balansda o'zgarishlar ro'y berishining ta'sirini 4 turga ajratish mumkin va ular quyidagicha bo'ladi:

1. Balansning aktiv tomonidagi bir (yoki bir necha) moddasi ko'paysa, aktiv tomonidagi boshqa bir moddasi kamayadi, lekin balansning jami summasi o'zgarmaydi. Masalan: bank kassasidan safar xarajatlari uchun hisobdor shaxsga 50000 so'm bo'nak (avans) berildi. Bunda:

Dt	19908	Kt	Dt	10101	Kt
Kun boshiga qol:			Kun boshiga qol:		
	150000			400000	
	1) 50000			1) 50000	
	obor: 1) 50000			obor: 1) 50000	
Kun oxiriga qol:			Kun oxiriga qol:		
	200000			350000	

2. Balansning passiv tomonidagi bir (yoki bir necha) moddasi ko'paysa, passiv tomonidagi boshqa bir moddasi kamayadi, lekin balansning jami summasi o'zgarmaydi. Masalan: mijozning talab qilib olunguncha saqlanadigan mablag'idan 200000 so'm muddatli depozitga o'tkazildi. Bunda:

Dt	20208	Kt	Dt	20408	Kt
			Kun boshiga qol:		
	1) 200000	Kun boshiga qol: 2200000		1200000	Kun boshiga qol: 1200000
	obor: 1) 200000			1) 200000	
				obor: 1) 200000	
		Kun oxiriga qol: 2000000			Kun oxiriga qol: 1400000

3. Balansning aktiv tomonidagi bir (yoki bir necha) moddasi ko‘paysa, balansning passiv tomonidagi bir (yoki bir necha) moddasi ham ko‘payadi, balansning jami summasi ham shu summaga ortadi. Masalan, jismoniy shaxsdan 100000 so‘m jamg‘arma depozit qabul qilindi. Bunda:

Dt    10101            Kt	Dt    20406            Kt
Kun boshiga qol:	Kun boshiga qol:
350000	300000
1)100000	1) 100000
obor:1) 100000	obor: 1) 100000
Kun oxiriga qol:	Kun oxiriga qol:
450000	400000

4. Balansning aktiv tomonidagi bir (yoki bir necha) moddasi kamaysa, balansning passiv tomonidagi bir (yoki bir necha) moddasi ham kamayadi, balansning jami summasi ham shu summaga kamayadi. Masalan, jismoniy shaxsning arizasiga asosan jamg‘arma depozit hisobvarag‘idan 50000 so‘m hisobdan chiqarildi. Bunda:

Dt    10101            Kt	Dt    20406            Kt
Kun boshiga qol:	Kun boshiga qol:
450000	400000
	1) 70000
obor: 1) 70000	obor: 1) 70000
Kun oxiriga qol:	Kun oxiriga qol:
380000	330000

Yuqorida keltirilgan to‘rtta operatsiya yuzasidan bank balansida quyidagicha o‘zgarishlarni kuzatish mumkin:

## 2.3.1-jadval

**DAT “Asaka bank” Xorazm viloyat filiali balansi, (2014 yil 31 dekabr holatiga)<sup>29</sup>**

Aktiv	O‘zgarishg a-cha	O‘zgaris h (-,+)	O‘zgaris hdan so‘ng
10101- Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar	400000	- 50000 +10000 0 -70000	380000
13101- Xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar	2500000	-	2500000
16103- Bosh bank filiallardan filiallar va banklararo hisob- kitoblar bo‘yicha olinadigan mablag‘lar	5000000	-	5000000
16509- Bankning imoratlari - Binolar va boshqa imoratlar	6450000	-	6450000
19908- Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar	150000	+50000	200000
<b>Jami aktivlar</b>	<b>14500000</b>	<b>+30000</b>	<b>14530000</b>
<b>Passiv</b>	O‘zgarishg a-cha	O‘zgaris h (-,+)	O‘zgaris hdan so‘ng
<b>Majburiyatlar</b>			
20208- Xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari	2200000	-200000	2000000

<sup>29</sup> DAT “Asaka bank” ma’lumotlari

20210- Davlat korxonalar, tashkilot va muassasalarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari	3000000	-	3000000
20406- Jismoniy shaxslarning jamg'arma depozitlari	300000	+10000 0 -70000	330000
20408- Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning jamg'arma depozitlari	1200000	+20000 0	1400000
20410- Davlat korxonalar tashkilot va muassasalarining jamg'arma depozitlari	800000	-	-
<b>Jami majburiyatlar</b>	<b>7500000</b>	<b>+30000</b>	<b>7530000</b>
<b>Kapital</b>			
30315- "Chiqarilgan ustav kapitali – Imtiyozli" - Chiqarilgan ustav kapitali-Imtiyozli	300000	-	300000
30318- Chiqarilgan ustav kapitali - Oddiy-Chiqarilgan ustav kapitali-Oddiy)	2700000	-	2700000
30903- Umumiy zaxira fondi	750000	-	750000
31206- Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)- Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)	3250000	-	3250000
<b>Jami kapital</b>	<b>7000000</b>	<b>-</b>	<b>7000000</b>
<b>Jami passivlar</b>	<b>1450000</b>		<b>14530000</b>

Shunday qilib, tijorat banklarida analitik va sintetik hisob ma'lumotlarining dastlabki hisobi har bir hisobvaraqlar bo'yicha o'z vaqtida aniq hamda to'g'ri rasmiylashtirilishi, ularning qayta ishlanishi buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil qilishni yengillashtiradi va balans hisobotlarini tuzishni tezlashtiradi, shuningdek, bankning ish kuni yakunlanishiga yordam beradi.

Muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli iqtisodiyotning barqaror o'sish suratlari ta'minlanmoqda. Bunda albatta, yurtimiz bank-moliya tizimida olib borilayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham so'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo'lga kiritilgan natijalar Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanmoqda.

Albatta, ushbu jarayonda respublikamizda yetakchi moliyaviy muassasalardan biri hisoblangan «Asaka» davlat-aksiyadorlik tijorat banki ham faol ishtirok etmoqda. Ayni paytda «Asaka» bank tomonidan investitsion jozibadorlikni oshirish, yuqori likvidlilik va barqarorlikni, asosiy ko'rsatkichlarning ildam o'sishini ta'minlash va ularni jahon standartlari talablari darajasiga yetkazish orqali raqobatbardosh, ichki bozor va eksportga mos mahsulotlar ishlab chiqaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan mijozlarga hamda xorijiy hamkorlarga sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish yo'lida faol ishlar olib borilmoqda.

Bank faoliyatiga xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan yuqori reyting baholari shundan dalolat beradi. Jumladan, jahonning yetakchi va nufuzli xalqaro reyting agentliklari sanalmish «Moody's» va «Fitch Ratings» tomonidan qatorasiga bir necha yillardan beri «Asaka» bank faoliyatiga yuqori reyting baholari berilmoqda, bank faoliyati "Barqaror" deb tan olinmoqda. Jahonning rivojlangan davlatlarida banklarning reyting ko'rsatkichlari darajasi pasayotgan bir paytda xalqaro reyting agentliklari tomonidan O'zbekiston bank tizimiga yuqori reyting baholarini berilishi, muhtaram Prezidentimizning bank tizimiga bo'lgan e'tibori evaziga bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshib borayotganligidan, bank tizimining barqarorligidan dalolat beradi.

«Asaka» davlat-aksiyadorlik tijorat banki Respublika iqtisodiyoti tuzulmalarini tubdan o'zgartirish, bank tizimini isloh qilish va liberallashtirish orasidagi barcha jarayonlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Bugungi kunda bankning asosiy e'tibori axborot texnologiyalari asosida ishlab chiqilayotgan innovatsion mahsulotlarga qaratilmoqda. Ana shunday mahsulotlar asosida "Internet bankning", SMS bankning, "Bank-mijoz" shuningdek turli shart

sharoitlarga ega xalqaro pul jo'natmalari, xalqaro VISA plastik kartochkalari keng tarqalmoqda.

Hisobot davriga ko'ra, bank tomonidan 21 ta sanoat qurulish korxonasiga 326,6 mlrd sum ekvivalentda xorijiy valyutada kredit mablag'lari ajratildi. Bundan tashqari bank mavjud korxonalar faoliyatini zamonaviylashtirish maqsadida ularni texnik va texnologik jihatidan qayta jihozlash uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etmoqda. Ma'lumki bank sanoatning neft-gaz, kimyo, mashinasozlik, issiqlik energetikasi, suv resurslari ta'minot xavf yirik tarmoqlardagi loyihalarni moliyalashtirish bilan bir qatorda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ham qo'llab quvvatlab kelmoqda. Muassasasining 2013 yilda kichik biznes sub'ektlariga ajratgan kreditlar hajmi 228,1 mlrd. so'mni, shu asosida yaratilgan ishchi o'rinlari soni 6 mingga yaqinini tashkil qildi.

Bank naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini takomillashtirishda faol ishtirok etib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 19 apreldagi «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha ham faol ishlar olib borilmoqda. Bank tomonidan 2015 yil 1 aprel holatiga 1498,1 ming donadan ortiq plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, ularning soni 159,0 ming donaga o'sdi.

Bank tomonidan 9975 ta terminal, 27 ta bankomat va 46 ta infokiosk o'rnatildi. 8512 ta korxonalar va tashkilotlarda "ish haqi" loyihalari joriy etildi. Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmi ham kengaymoqda. 2015 yil birinchi choragi davomida savdo aylanmalari miqdori 314,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Bankda o'rnatilgan barcha infokiosk va bankomatlarda «SMS-TO'LOV» va «UZCARD-CLICK» dasturiy tizimlari orqali barcha kommunal xizmatlar, uyali aloqa operatorlari, kabel televideniyesi, internet va boshqa xizmatlar hamda tovarlar uchun to'lovlarni amalga oshirish, bank tomonidan mijoz uchun ochilgan hisob raqamni boshqarish, jismoniy shaxslar o'rtasida pul o'tkazmalarini uyali

aloqa telefoni yoki internet tarmog'i orqali bank ishtirokisiz amalga oshirish mumkin. Shuningdek, mijozlar uchun yana bir qator qulayliklar joriy etilgan. 2015 yil 1 aprel holatiga mazkur xizmatlardan foydalanuvchi mijozlar soni 65 535 nafardan oshdi.

Bir so'z bilan aytganda, «Asaka» bank jamoasi joriy yilda mijozlarga yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, mahalliy xom ashyodan import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha faol ishlar olib borishni maqsad qilgan.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning tub zamirida odamlarning tinch va farovon hayot kechirishi, turmushini bundanda obod va go'zal etish mujassamlashgan. «Sog'lom bola yili»da «Asaka» davlat-aksiyadorlik tijorat banki tomonidan bir qator chora-tadbirlar dasturi belgilanib, shundan kelib chiqqan holda bank mijozlariga tezkor va ishonchli xizmatlar ko'rsatildi.


Shuningdek, Muhtaram Prezidentimizning 2013 yil 2 avgustdagi "2013-2016 yillarda Qashqadaryo viloyati sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Qaroriga asosan Qashqadaryoda yangi sanoat quvvatlarini yaratish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, mineral – xomashyo resurslariga yanada chuqur ishlov berib, yuqori qo'shilgan qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha 555 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Qashqadaryo viloyatining barcha shahar va tumanlarini qamrab oluvchi ushbu loyihalarning ayrimlarini «Asaka» banki moliyaviy ko'magi asosida amalga oshirish mo'ljallangan. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida yangi oziq-ovqat va nooziq-ovqat sanoati quvvatlarini yaratish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda uning resurs bazasini kengaytirish, qurilish sanoati salohiyatini rivojlantirish bo'yicha manzilli dastur doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Qashqadaryo viloyati sanoat salohiyatini amalga oshirish dasturi doirasida «Asaka» bank tomonidan yigirmadan ziyod istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish rejalashtirilgan. Ularning dastlabki umumiy qiymati 30 mln. AQSh dollaridan ziyodni tashkil etadi. «Asaka» bank mamlakatimiz moliya muassasalari orasida Qashqadaryo viloyati sanoatini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish, shuningdek, mazkur dastur doirasida ko'zda tutilgan kreditlar hajmi va buning natijasida yaratilayotgan ishchi o'rinlari soni bo'yicha yetakchi o'rinlardan birida turadi.

Ushbu 2.3.1-jadvalda bo'sh pul mablag'lari, pul resurslari zarur bo'lgan sohalarga bank tizimi orqali oqib o'tishi tavsirlangan. Ushbu jadvalga ko'ra shuni aytish mumkinki mamlakatimizdagi ortiqcha pul resurslari bo'lgan sektorlar ya'ni xususiy korxonalar, firmalar, qo'shma korxonalar va boshqa faoliyat turlaridan pul resurslari yetishmaydigan sektorlarga pul resurslari yo'naltiriladi.

### 2.3.1-jadval

#### Bo'sh pul mablag'lari, pul resurslari zarur bo'lgan sohalarga bank tizimi orqali oqib o'tish tizimi



Quyidagi 2.3.2-jadvalda bank aktivlarining tahliliy ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra 2012 yil yakuniga ko'ra jami bank aktivlari 4215,587 mlrd.

so'mni, 2013 yil yakuniga ko'ra 4524,756 mlrd. so'mni, 2014 yil yakuniga ko'ra esa 5253,633 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Bank aktivlari ichida yuqori ko'rsatkichni ssuda tashkil qilgan. Masalan, ssuda 2012 yil yakuniga 2400,607 mlrd. so'mni, 2013 yil yakuniga 2886,757 mlrd. so'mni, 2014 yil yakuniga ko'ra esa 3592,652 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki qaram korxonalariga investitsiyalar ham oshib bormoqda. 2012 yil yakuniga ko'ra qaram korxonalariga investitsiyalar 19,978 mlrd. so'mni tshkil qilgan bo'lsa, 2013 yil yakuniga 37,724 mlrd. so'mni va 2014 yil yakuniga ko'ra esa 48,889 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Shuningdek yana 2.3.2-jadvalda bankning boshqa aktivlari ko'rsatkichlari ham keltirilgan.

**2.3.2-jadval**  
**Bank aktivlarining tahliliy ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)<sup>30</sup>**

№	Bank aktivlari	2012	2013	2014
1	Pul mablag'lari va ekvivalenti	918,881	562,164	624,250
2	Bank vositalari	621,476	798,720	752,937
3	Ssuda	2400,607	2886,757	3592,652
4	Sotuvdagi mavjud investitsiyalar	20,034	21,248	23,677
5	Qaram korxonalariga investitsiyalar	19,978	37,724	48,889
6	Asosiy vositalar	85,323	98,729	83,403
7	Foyda solig'i bo'yicha joriy talab	1,887	1,512	1,935
8	Kechiktirilgan soliq aktivlari	4,136	21,829	36,522
9	Boshqa aktivlar	136,766	102,073	49,138
10	Sotuvga mo'ljallangan aktivlar	6,499	—	40,230
<b>Jami aktivlar</b>		<b>4215,587</b>	<b>4524,756</b>	<b>5253,633</b>

<sup>30</sup> Manba: asakabank.uz

Quyidagi 2.3.3-jadvalda bank kapitallarining tahliliy ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra 2012 yil yakuniga jami bank kapitallari **520,701** mlrd. so'mni, 2013 yil yakuniga ko'ra **583,700** mlrd. so'mni, 2014 yil yakuniga ko'ra esa **675,729** mlrd. so'mni tashkil qilgan. Bank kapitallari ichida yuqori ko'rsatkichni aksionerlik kapitali tashkil qilgan. Aksionerlik kapitali 2012 yil yakuniga ko'ra 395,355 mlrd. so'mni, 2013 yil yakuniga ko'ra 469,802 mlrd. so'mni va 2014 yil yakuniga ko'ra 538,667 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Shuningdek ushbu 2.3.3-jadvalda bankning boshqa kapital turlari ko'rsatkichlari ham keltirilgan.

**2.3.3-jadval**

**Bank kapitallarining tahliliy ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)<sup>31</sup>**

№	Bank kapitallari	2012	2013	2014
1	Aksionerlik kapital	395,355	469,802	538,667
2	Emissionniy daromad	3,329	5,670	3,659
3	Rezerv kapital	7,382	7,382	7,382
4	Bino va inshootlarni qayta baholash fondi	36,453	32,732	29,411
<b>Jami kapital</b>		<b>442,519</b>	<b>515,585</b>	<b>579,119</b>

<sup>31</sup> Manba: asakabank.uz

## XULOSA VA TAKLIFLAR

**Bitiruv malakaviy ishining natijalaridan quyidagi xulosa va takliflarni keltirish mumkin :**

1. “Mobil Banking” xizmatiga ulanish orqali Biz mobil telefoningizning SMS-xabar xizmati yordamida quyidagilarni ko`rib chiqishimiz mumkin:

–xohlagan vaqtda Bankka bormasdan kartamiz balansi (undagi pul mablag'lari qoldig'i)ni bilishimiz;

–savdo xizmati tarmog'ida o'tkazilgan har bir amaliyot bo'yicha ma'lumot olishimiz;

–bankomat va boshqa joylarda yechilgan pul mablag'lari haqida ma'lumot olishimiz mumkin.

2. Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki uyidan turib, internet orqali:

- to'lovlarni o'tkazish;

- to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;

- barcha hisobotlarni olish kabi bank amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalana oladi.

3. Banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning kapitallashuv darajasini yanada oshirish yuzasidan:

•inqirozga karshi choralar dasturiga muvofik 2014 yilda tijorat banklari ustav kapitaliga kariyb 650 mlrd. so`m yo`naltirildi;

•qo`shimcha ravishda tijorat banklarining 280 mlrd. so`mlik aktsiyalari muomalaga chiqariladi va joylashtiriladi;

•2014 yil davomida tijorat banklari umumiy kapitali hajmi 2,6 trln. so`mga etkaziladi (o`shish 20 foiz).

4. Mamlakatimiz bank tizimi kapitalining etarlilik darajasi -23%, Bazel qo`mitasining xalqaro standarti 8 % (ya'ni .3 marta ko`pdir).

5. Bu esa Bank tizimining joriy likvidliligi - 1.5 mlrd. dollar, Nodavlat qarzlari bo'yicha tulash kerak bo`ladigan to'lovlardan 10 marta ko`pdir.

6. O`zbekiston bank tizimiga jahonning nufuzli reyting agentligi "Mudis" biryo`la 3 ta yo`nalish bo`yicha bergan e'tirofi:

- bank-moliya tizimi "barqaror"
- milliy valutada uzoq muddatli depozit reytingi - "barqaror"
- xorijiy valutada uzoq muddatli depozit reytingi - "barqaror".

Shuningdek, mamlakatimizning barcha yirik tijorat banklari xalqaro nufuzli reytingtashkilotlarining ijobiy reytingini olgan.

7. Respublikamiz tijorat banklarining nokumulyativ imtiyozli aksiyalarini chiqarish va investorlarning ushbu aksiyalardan oladigan daromadlarini soliqdan ozod qilish lozim. Buning natijasida, birinchidan, mazkur aksiyalarning investitsion jozibadorligi oshadi;

ikkinchidan, tijorat banklarining uzoq muddatli resurslari miqdori oshadi; uchinchidan, tijorat banklarining birinchi darajali kapitali hajmi sezilarli darajada oshadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. 2016 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo`l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O`zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so`zi. 16 yanvar 2016 yil.
2. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo`l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O`zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so`zi. 17 yanvar 2015 yil.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so`zi. 2014 yil 18 yanvar.
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2012 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so`zi, 2013 yil 19 yanvar.
5. Karimov I.A. "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini Yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi // O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O`zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi". Xalq so`zi, №14 (5434). 2012 yil 20 yanvar.

6. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O`zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 30 yanvar.
7. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning O`zbekistan Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 28 yanvar.
8. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. Toshkent, "O`zbekiston", 2009.
9. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so`zi, 2009 yil 14 fevral.
10. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - xayot xaqiqatini aks ettirish. T.: O`zbekiston, 2009. - 24 b.
11. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi majlisining Qarori. «2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to`g`risida», 2009 yil 13 fevral.
12. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: Shark, 8 dekabr 1992.
13. O`zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to`g`risida"gi Qonuni. 21 dekabr 1995.
14. O`zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to`g`risida"gi Qonuni. 25 aprel 1996.
15. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 10 noyabrdagi «Mikrokreditbank» aktsiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik sub'ektlarini

- qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 7 noyabrdagi "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bosh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>TM</sup> Qarori.
  17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 iyuldagi «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori.
  18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 18 maydagi «YOsh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ga doyr qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Farmoni.
  19. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2006 yil 19 dekabrda "Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
  20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 15 apreldagi "Bank tizimini yanada islox qilish va erkinlashtirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
  21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Mikromoliyaviy xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori 19.02.2007 y. № 37.
  22. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent, "O'zbekiston", 2009.
  23. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
  24. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - xayot xaqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009. - 24 b.

25. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi majlisining Qarori. «2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to`g`risida», 2009 yil 13 fevral.
26. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. - Toshkent: O`zbekiston, 1995. -266 b.
27. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid. barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent: O`zbekiston, 365 b.
28. Maxmudalieva YO.A. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uni baholash. Iqtisod fan. nomzodi dis. avtoreferati. -Toshkent: Bank-moliya akademiyasi, 2001. -22 b.
29. Omonov A.A. Bank kapitalini samarali boshqarish masalalari: Iqtisod fanlari nom. dis. Avtoreferati. -Toshkent: O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat va jamiyat qurilishi akdemiya, 2004. -21 b.
30. Ruzmetov Sh.B. O`zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mutahkamlash yo`llari. Iqtisod fan. nomzodi dis. avtoreferati. -Toshkent: Bank-moliya akademiyasi, 2009. - 18 b.
31. Tuxtabaev U.A. Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo`llari. i.f.n. diss. Avtoreferati. -Toshkent: Bank-moliya akademiyasi, 2007. -20b.
32. Nurmurotov X. Kichik va o`rta biznesni moliyaviy qo`llab-quvvatlashda tijorat banklarining o`rni// Bozor, pul va kredit. -Toshkent, 2002. - № 6. -s. 3-6.
33. O`zbekiston Respublikasi yillik statistik to`plami. "Xayot nashr", 2013. 344 b.
34. Синки Дж. Ф. Управление финансами коммерческих банков. Перевод с англ. -М.: Саталлахй, 1994. -820 с.
35. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. Управление и операции. -М.: ИПЦ Вазар-Ферро, 1999. -320 с.
36. Маркова О.М. Коммерческие банки и их операции. -М.: Юнити, 1995. - 288 с.
37. Макаров О.М. Коммерческие банки и их операции. -М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1995.-288 с. .

38. Полфреман Д. Основы банковского дела. Пер. с англ. -М.: ИНФРА-М, 1996.-624 с.
39. Колесникова В.И. Банковское дело. -М.: Финансы и статистика, Statistishes Bundesant.2000. п. 96.
40. Deutsche Bank - Animal Report. 2005.
41. MF International Financial Statistics.
42. <http://www.uba.uz/>
43. <http://www.cbu.uz/>
44. <http://www.gov.uz/>
45. <http://www.bahkir.ru>
46. <http://www.nbu.com>
47. <http://www.thebanker.com>